

D.O.XIMMATALIYEV, R.V.SALOMOVA

**TA'LIM SHAKLLARINI KLASTERLASH
ASOSIDA BO'LAJAK INFORMATIKA
O'QITUVCHISINING AXBOROT-TEXNOLOGIK
TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH
METODIKASI**



Книга должна быть
возвращена не позже
указанного здесь срока

Количество предыдущих
выдач _____

--	--



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

D.O.XIMMATALIYEV, R.V.SALOMOVA

TA'LIM SHAKLLARINI KLASTERLASH
ASOSIDA BO'LAJAK INFORMATIKA
O'QITUVCHISINING AXBOROT-
TEXNOLOGIK TAYYORGARLIGINI
RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Monografiya

Namangan - 2023

UO'K: 378.147
KBK: 74.263.2
X – 61, S – 17

ISBN: 978-9910-743-28-3

Ximmataliyev D.O, R.V.Salomova

Ta'lim shakllarini klasterlash asosida bo'lajak informatika o'qituvchisining axborot-texnologik tayyorgarligini rivojlantirish metodikasi

Monografiyada oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak informatika fani o'qituvchilarini axborot-texnologik tayyorgarligini innovatsion ta'lim shakllarining klasterli muhitida rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari didaktik tamoyillar va metodologik yondashuvlarni shakllantirish orqali gnostik, konstruktiv, loyihalash, kommunikativ, tashkiliy, ekspert-baholash komponentlarni rivojlantirish asosida ta'minlash hamda bo'lajak informatika fani o'qituvchilarini ta'lim berishning innovatsion-tashkiliy shakllaridan foydalanib axborot-texnologik tayyorgarligini rivojlantirishning klasterli modeliga asoslangan metodik modeli maqsad, mazmun va natija komponentlarni uzviylashtirish hamda ta'lim subyektlari va hamkor tashkilotlarining klasterli o'zaro ta'siri sharoitida informatika o'qitishni rivojlantirish asosida takomillashtirish kabi masalalar mazmun-mohiyati keltirib o'tilgan.

Monografiya oliy ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan professor-o'qituvchilar, tayanch doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar, magistr va talabalar hamda umumta'lim maktablarining o'qituvchilari uchun mo'ljallangan.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Ilmiy kengashining 2023 yil "29" sentyabrda 14-sonli majlis qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN: 978-9910-743-28-3

© Ximmataliyev D.O, R.V.Salomova

© "Usmon Nosir media", Namangan-2023

KIRISH

Jahonda amalga oshirilayotgan islohotlarning ta'lim taraqqiyotidagi pirovard maqsadi – har bir mamlakatning iqtisodiyotini rivojlangan mamlakatlar darajasiga olib chiqish va shu orqali xalqlarning farovonligini oshirishdan iborat bo'lmoqda. Dunyo umummadaniyatining zamonaviy ilmiy texnik taraqqiyoti, fan va ishlab chiqarish sohaslarida amalga oshiriladigan islohotlar, ilmiy texnik axborotning jadal rivojlanishi va yangilanishi, pedagogik faoliyat mazmunini uzviylik tamoyillari asosida muntazam dinamik o'zgarishi bilan ifodalanadi. Zamonaviy ilmiy-amaliy tajribalarni pedagogik texnologiyalarning yetarli darajada aks ettirish yo'llari bilan belgilanadi, bir qator umummadaniy, umumkasbiy va kompetentliklarni shakllantirish imkoniyatini yaratadi. Shunga ko'ra uzluksiz oliy ta'lim muassasalarida informatikani o'qitish metodikasini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyo ta'lim sohasida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda yuqori texnologik, ta'limiy kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Informatikani o'qitish voqelikning tobora muhim ijtimoiy-madaniy jarayoniga aylanib borayotganiga qaramay, uning didaktik salohiyati yetarli darajada ochib berilmaganligicha qolmoqda. Shu munosabat bilan, oliy ta'lim muassasalarida o'qitishning zamonaviy ta'lim shakllarining klasterli muhitida bo'lajak informatika fani o'qituvchilarining axborot-texnologik tayyorgarligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishni ilmiy asosda aniqlash va ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan va innovatsion ta'limning tashkiliy shakllaridan samarali foydalanish yo'llarini aniqlashtirishga alohida e'tibor berilmoqda.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda oliy ta'lim tizimini takomillashtirishning hozirgi axborotlashgan bosqichida, informatika fanini o'qitish texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari sezilarli darajada ortib bormoqda. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-son Farmoniga asosan "2026 yilga qadar 10 ta salohiyatli oliy ta'lim muassasasini QS va TNE xalqoro

reytinga kirishga maqsadli tayyorlash, 2026-yilgacha nodavlat oliy ta'lim muassasalari sonini kamida 50 taga yetkazish¹ ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Shu munosabat bilan oliy ta'lim muassasalarida informatikani o'qitishning innovatsion imkoniyatlari tobora ortib borib, turli sohalarida informatika o'qitish metodlari: o'quv materiallarini mazmunini tushunish, qayta ishlash samaradorligining sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilishi mumkin bo'lgan ilmiy, ta'limiy va kelgusidagi kasbiy faoliyati bilan integratsiyalashtirilishi muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda ta'limga axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish nazariyasi va amaliyoti hamda masofadan o'qitish texnologiyalarini qo'llash muammolariga doir tadqiqot ishlarini: A.A.Abduqodirov, M.X.Allamberganova, U.SH.Begimqulov, P.M. Jalolova, M.H.Lutfillayev, N.A.Muslimov, N.I.Taylaqov, R.D.Shodiyev hamda o'qitish jarayonini samarali tashkil etishning didaktik prinsiplari tizimi M.I.Maxmutov va A.D.Asqarovlar tomonidan tatqiq etilgan.

Mustaqil hamdo'stligi davlatlarida informatikani o'qitishning nazariy asoslarini Y.A.Komenskiy, A.P.Lang, K.D.Ushinskiy, amaliy jihatlarini N.A.Goncharova, J.J.Karbozova, V.A.Kuklev, R.R.Nasibullov, A.V.Obrubova, A.Y.Uvarov, o'qitishda ma'lumotni vizual idrok etishning psixologik asoslanishi L.S.Vigotskiy, P.Y.Galperin, A.N.Leontyev, S.L.Rubinshteyn, D.B. Elkonin va boshqalar o'z tadqiqot ishlarida ko'rsatib berganlar.

Xorijiy mamalakatlarda samarali o'qitish metodlar xususida P.Alfred, K.C.Barker, A.Kameas, J.Leng, T.Monaha va boshqalarning ilmiy tadqiqot ishlarida fikr yuritilgan.

Ta'lim tizimini elektron ta'lim resurslari bilan ta'minlash vazifalarini yechish uchun qator tadqiqotchilar tomonidan ishlar amalga oshirilgan bo'lsada, oliy ta'limda raqamli resurslarning markazlashtirilgan banklarini shakllantirishning zamonaviy texnologiyalar asosida informatikani o'qitishning amaliy-texnologik tizimini takomillashtirish zarurati mavjud.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi PF-60-son "Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni

1-BOB. BO'LAJAK INFORMATIKA FANI O'QITUVCHISINING AXBOROT-TEXNOLOGIK TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY METODOLOGIK ASOSLARI

1.1-§. Bo'lajak informatika fani o'qituvchisining axborot-texnologik tayyorgarligini rivojlantirish aspektlari

1.1.1-§. Bo'lajak informatika o'qituvchisining tadqiqot predmeti (subyekti) sifatida

Bugungi kunda shiddat bilan rivojlanayotgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining xilma-xilligi axborot jamiyati faoliyatining samarali asosini tashkil etadi. Bu esa mavjud axborot resurslaridan barcha foydalanuvchilarga sifat jihatidan yangi talablarni istانسiz yuklaydi. Shu sababli, hozirgi kunda, ijtimoiylashtirish jarayonining normal imkoniyati va ta'lim jarayonlari, ularning axborot-kommunikatsiya sohasidagi bilim, ko'nikma va qobiliyatlarini o'z vaqtida va yuqori sifatli shakllantirish bog'liqdir. Bu esa o'z navbatida, zamonaviy pedagog-o'qituvchilarining, ayniqsa, bo'lajak informatika fani o'qituvchilarini axborot-texnologik tayyorgarligini yanada rivojlantirishning fundamental (tub) o'zgarishlarni nazarda tutadi. Ularning maktab ta'limidagi kasbiy mavqeining o'ziga xosligi pedagogik jarayonni nafaqat butun maktab jamoasining kompyuter ta'minoti bilan yetarli darajada axborot-kommunikatsiya integratsiyasiga bo'lgan ehtiyoji bilan belgilanadi. Undan tashqari ushbu jarayonda yangi, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini doimiy targ'ib qilish ham muhim omillardan biri hisoblanadi.

Bo'lajak informatika o'qituvchisi zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va vositalarining murakkabligi va xilma-xilligidan, birinchi navbatda, pedagogik amaliyotda optimal tadbir etiladigan pedagogik zarur axborot texnologiyalari maqomiga javob beradigan kasbiy qobiliyatga ega bo'lishlari talab etiladi.

Bo'lajak informatika o'qituvchilarining axborot-texnologik tayyorgarligining yuqori sifati axborotlashgan jamiyatning intensiv hamda dinamik o'zgarishlari bilan bog'liq deb taxmin qilinadi.

Haqiqatdan ham, bo'lajak informatika fani o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash mobaynida yangi, zamonaviy axborot texnologiyalarining paydo bo'lishi nafaqat ekstensiv, balki intensiv omillarga ham bog'liq emas. Ular orasida hisoblash tizimlari va tarmoqlarining apparat va dasturiy ta'minotining bir necha avlodini uzluksiz ravishda o'zgartirish omili dastlabki o'rinda turadi. Shunga asosan, bo'lajak informatika o'qituvchisining axborot-texnologik tayyorgarligi uchun faqat muayyan ta'lim standarti bilan belgilangan asosiy bilim va ko'nikmalarni egallashi yetarli emas degan hulosaga kelishimiz mumkin.

Bo'lajak informatika o'qituvchilarining axborot-texnologik tayyorgarligining yuqori darajadagi sifatini ta'minlash faqat ushbu maxsus, jadal rivojlanayotgan pedagogik jarayonni maqsadli boshqarish asosida mumkin. Bu esa ta'lim jarayonida qo'llaniladigan barcha yangi o'qitish shakllarini o'z ichiga oladi. Oliy ta'lim bo'lajak mutaxassisning axborot-texnologik tayyorgarlik sifatini maxsus tashkil etilgan boshqarish tufayli nafaqat jamiyat taraqqiyotiga qaratilgan ijtimoiy innovatsion xarakterga ega bo'ladi, balki mavjud ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar ichida zarur samaradorlikni saqlab qoladi.

Bugungi kunga qadar zamonaviy jamiyatda insonning madaniy-tarixiy jihatdan rivojlanishi jarayonining tahliliy metodik darajasi, ularni boshqaruv omilining konstruktiv mazmuni ochiq ijtimoiy tizimning rivojlanishining umumiy nazariyasi bo'yicha qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Shu jumladan, I.V.Blauberger, D.M.Gvishiani, L.S.Vigotskiy, V.G.Afanasiyev, V.A.Yakunin, L.V.Mardahayev, T.I.Ilin, N.V.Kuzmin kabi ta'lim tizimining mashhur mualliflari tadqiqotlarida o'z tasdig'ini topgan.

Ta'lim sifatini boshqarishning va kasbiy faoliyatga tayyorgarlikning fundamental ahamiyati N.G.Bagautdinova, X.X.Malivanov, S.I.Gessen, A.C.Makarenko, S.T.Shatsky, L.P.Kachalova, V.A.Slastenin, T.I.Shamova, E.M.Korotkoye, D.S.Novikov, N.I.Nikitina, D.V.Kachalov, V.M.Goncharenko, V.N.Nujdin, G.G.Kadamseva, YE.R.Panteleyev va A.I.Tixonov kabi pedagog olimlarning tadqiqotlarida hulasalangan.

P.K.Anoxin, V.G.Shipunov, Y.N.Aksenenko, S.N.Yepifansev, V.G.Afanasiyev, R.A.Belousov, YE.A.Volkov, N.X.Pushkarev, YE.X.Kishkel, A.I.Subettolar o'z tadqiqotlarida pedagogik jarayonni sifatli, ochiq tizim sifatida boshqarishning nazariyasini taklif etganlar. Hozirgi davrda ijtimoiy tizimlarni boshqarishning umumiy nazariyasi va pedagogik jarayonni zamonaviy nazariy yondashuvlarini tushunish asosida rivojlanmoqda.

Zamonaviy ta'limni isloh qilish bilan bog'liq muammolarning o'sib borishi informatika fani o'qituvchilarini axborot-texnologik tayyorlash tizimida o'zgarishlarni talab qiladi. Ta'lim tizimini axborotlashtirishning turli bosqichlarida kompyuter texnologiyasini joriy etish muammolari hamda undan samarali foydalanishning nazariy asoslari V.M.Glushkov, N.V.Apatova, YE.P.Velixov, N.F.Talizinlarning tadqiqotlarida o'rganilgan. A.Abdukadirov, A.L.Denisova, A.Kuznetsov, E.I.Kuznetsov, N.V.Makarova kabi olimlar ta'limni axborotlashtirish sharoitida bo'lajak o'qituvchilarni o'qitish bilan bog'liq ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirganlar.

MDH mamlakatlari ta'lim amaliyotiga qaraydigan bo'lsak, ta'lim jarayonida zamonaviy shahsiy kompyuterlarni qo'llash uslubiyoti E.V.Bursian, C.V.Panyukova, L.I.Ansiferov, V.V.Laptev, O.A.Bordovsky, I.B.Gorbunova, V.A.Izvozchikov, A.C.Kondratyev va H.V.Sofronovalar tomonidan ishlab chiqilganligini qayd etish mumkin. Zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash orqali bo'lajak mutaxassisning axborot-texnologik tayyorgarligini tashkil etishning o'ziga xos jihatlari I.V.Robert, A.L.Denisova, V.N.Vasilyev, H.YE.Astafyeva, A.L.Vagramenko, G.A.Kruchinina, B.C.Lednev, V.M.Monaxov, A.P.Yershov, D.A.Belyayev, A.I.Berg, YE. G.Polat kabi olimlar va tadqiqotchilar tomonidan tadqiq etilgan. Ularning tadqiqotlari to'g'ridan-to'g'ri axborotlashtirishni boshqarishga bag'irlangan bo'lib, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish kontekstida, zamonaviy axborot jamiyati va zamonaviy ta'lim salohiyatini aniqlash muammosi bilan bog'liq degan fikrni ilgari suradilar, ammo, bo'lajak informatika o'qituvchilarining axborot-texnologik tayyorgarligini boshqarish

xususiyatlarini aniqlamaydi. Bo'lajak informatika o'qituvchilarining kasbiy sifat va fazilatlarini mezonlarini aniqlashning dolzarb masalalari xususan, rivojlanayotgan axborot madaniyatining jadal o'zgarib borayotgan sharoitida ularning kasbiy faoliyatga tayyorgarligini sifat jihatdan boshqarish masalalari hali yetarli darajada ilmiy-pedagogik jihatdan yoritilmagan.

Ta'lim amaliyotda uchraganidek, nazariy-metodologik jihatdan ham zamonaviy pedagogik jarayonni tashkil etish uchun axborot-kommunikatsiyaning uzluksiz murakkabligi va professional-texnologik talablar va bu bo'lajak informatika o'qituvchilarining kelajakdagi kasbiy tayyorgarligini sifatli boshqarish sohasida amalga oshirish yo'llari bo'yicha aniq yetarli bo'lmagan tadqiqotlar o'rtasida haqiqiy ziddiyatlar paydo bo'lishi tabiiy holatdir.

Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayoni sifatini o'z vaqtida takomillashtirish zamonaviy axborot sivilizatsiyasi imkoniyatlarining ko'p tomonlama rivojlanishi va o'quv amaliyotida axborot va texnologik qo'llab-quvvatlashning yangi vositalarini o'z-o'zidan jalb qilish sababli bu ziddiyatli vaziatga asta-sekin yechim topish mumkin.

Ilmiy jihatdan asoslangan hamda amalda ta'lim jarayoniga tadbiq etilgan zamonaviy maktablarni axborotlashtirish jarayonining talablari va realligi o'rtasidagi ziddiyatni hal etish bo'lajak informatika o'qituvchisining **tadqiqot predmeti (subyekti) sifatida** faol va kompetentli kasbiy - shahsiy omil darajasiga erishishni nazarda tutadi.

Shunday qilib, mavjud ziddiyatni hal qilish bo'lajak informatika fani o'qituvchilarini tayyorlash maxsus tashkillashtirilgan boshqarish asosida amalga oshirilishi mumkin, bu esa aynan ushbu tadqiqotning muammosini, ya'ni oliy ta'limda informatika o'qituvchilarining axborot-texnologik tayyorgarligining mazmuni va texnologiyalarini belgilab beradi.

Bo'lajak mutaxassisning kasbiy faoliyatga tayyorgarlik sifatini ta'minlash uchun tashkil etilayotgan pedagogik jarayonning komponentlarini aniqlash va ularning boshqaruv vazifalarini batafsil ko'rib chiqishga undovchi tarkibiy-funksional yondashuv- **tadqiqotning uslubi asosini** tashkil etadi.

Fan, ta'lim va texnologiya o'rtasidagi o'zaro hamkorlik muammosini ishlab chiqish uchun tizimli yondashuv; mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning yakuniy va oraliq maqsadlarini oldindan aniqlash uchun tizimli-faoliyatiy yondashuv; o'qituvchilarni kasbiy tayyorlash uchun ta'limni axborotlashtirish va insonparvarlashtirish mohiyatining asosiy qoidalarini qamrab olgan shahsiy-yo'naltirilgan va faoliyatli yondashuv; OTMning ta'lim jarayonida va bo'lajak mutaxassisning o'z-o'zini tarbiyalash jarayonida bo'lajak mutaxassis shaxsining faol ijodiy faoliyati haqida; OTM sharoitida ta'lim sifatini boshqarish usullari va tashkil etish usullari haqida bo'lajak informatika o'qituvchilarini axborot-texnologik kompetentligini rivojlantirish tizimining samarali ishlashi nazarda tutiladi.

Jamiyatni zamonaviy raqamlashtirish sharoitida tashkil etiladigan pedagogik jarayon mazmunini intensiv sifat jihatidan o'zgartiradigan va istisnosiz barcha ta'lim tuzilmalari faoliyatini o'zgartiradigan axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi kuzatilmoqda. Bir tomondan, zamonaviy axborotga boy ta'lim yangi imkoniyatlar kasb etsa, ikkinchi tomondan, bu imkoniyatlarni amalga oshirish yangi yosh avlodni axborot dunyosida muvaffaqiyatli va samarali hayot kechirishi uchun yetarli darajada tayyorlashning zaruriy talabiga aylanadi.

Oliy ta'lim muassasalarining zamonaviy bitiruvchilariga nisbatan iqtisodiy buyurtma yaxlit axborotlashgan ta'limni joriy etishni hamda bo'lajak informatika o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonini takomillashtirishni talab qiladi.

1.1.2-6. Bo'lajak informatika o'qituvchilarining axborot-texnologik tayyorgarligiga qo'yiladigan zamonaviy talablar

Ta'lim muassasalarida faoliyatlarini olib borayotgan bo'lajak informatika o'qituvchisi ta'lim jarayonida o'quvchilarga nafaqat yangi mavzu bo'yicha bilim va ko'nikmalarini shakllantirish, balki eng avvalo uning asosiy komponentlarini mustahkam o'zlashtirish bilan ta'minlangan yuqori darajadagi kasbiy va axborot-texnologik tayyorgarlikni doimo saqlab turishi muhim ahamiyatga ega. Uning tarkibiy tuzilishi va mazmunini yanada takomillashtirish bo'lajak

informatika o'qituvchisiga axborot oqimini muvaffaqiyatli harakatlantirish, turli axborot resurslari hamda texnologiyalari bilan ishlash, kerakli materiallarni izlab topish, tanlash va qayta ishlash, uzatish va pedagogik jarayonning axborot-kommunikatsion ta'minoti muammolarini samarali hal qilish imkonini beradi. Biroq, ayni paytda ta'lim tizimida bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan ziddiyatlar avj oldi - bunga sabab axborot hajmining keskin rivojlanishi va axborotlarni qayta ishlashning tez rivojlanishini sabab sifatida ko'rsatish mumkin. Boshqa tomondan, turli yo'nalishdagi mutaxassislarni tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak informatika o'qituvchilarini tayyorlash modellari, pedagogik jarayonning tashkiliy shakllari va usullari - juda konservativ usulda tashkil etilishini asosiy sabab sifatida ko'rsatish mumkin.

Tadqiqot muammosiga oid mahalliy va xorijiy mamlakatlarda pedagog olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar tahlili informatika sohasidagi bakalavrlarning oliy ta'limini tashkil etishning mavjud modellari axborotlashtirishning zamonaviy dinamik sharoitlariga nisbatan qayta ko'rib chiqilishi va tuzatilishi va oliy ta'lim muassasalarining pedagogik ta'lim amaliyotida bo'lajak informatika fan o'qituvchilarini kasbiy tayyorlash uchun maxsus sifat boshqaruvi tizimlarini joriy etishga imkon beradi.

Aniqlangan mavjud muammo shundan iboratki, zamonaviy texnologiyalar, ta'limni axborotlashtirishning konservativ standartlarini himoya qilish, bo'lajak informatika o'qituvchilarini tayyorlash sifatini yaxshilash uchun yagona asos bo'la olmaydi. Aksincha, ta'lim muassasalarida bo'lajak mutaxassisni mukammal darajada ta'lim olishi doimo dolzarb bo'lishi, jamiyat taraqqiyotini rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi hamda mavjud ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar doirasida samarali bo'lib qolgan holda oliy ta'lim uzviyligini saqlashi lozim.

Mamlakatimizda keyingi yillarda zamonaviy axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi bo'lajak informatika o'qituvchisiga kasbiy va axborot-texnologik talablarning sezilarli darajada o'zgarishiga olib keldi.

Bunga birinchi omil sifatida *internet texnologiyalarining keng rivojlanishi va jadal integratsiyalashuvini keltirish mumkin*. U kompyuter tizimlari va tarmoqlari va tarmoqlarini qurishda bilim va ta'limlarga, axborot xavfsizligini ta'minlash asoslarini bilish va telekommunikatsiya-texnologiyalarini moslashuvchan qo'llash qobiliyatiga bo'lgan talablar darajasini oshiradi.

Kompyuter tizimlari va tarmoqlari haqidagi bilimlarni bilish talablari asosiy tushunchalar va mahalliy tarmoqlarni qurishning eng oddiy usullari bilan cheklangan bo'lsa, unda zamonaviy talablar ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida tarmoq imkoniyatlarini va texnologiyalarini o'z internet -resurslarini loyihalash va yangi zamonaviy axborot va ta'lim muhitini tashkil etish bilan birga qo'llash qobiliyatini nazarda tutadi.

Bo'lajak informatika o'qituvchilarining axborot-texnologik tayyorgarligiga qo'yiladigan zamonaviy talablarni belgilovchi ikkinchi omil sifatida Microsoft Windows operatsion tizimidan tashqari zamonaviy operatsion tizimlarning jadal rivojlanishi, hisoblash tizimlari va tarmoqlari uchun mo'ljallangan professional dasturiy ta'minot turlari hajmi va diapazonining oshishi hisoblanadi. Mavjud ilmiy-uslubiy adabiyotlar va manbalar axborotlarni kompyuterda qayta ishlash vaqtida kerakli natijani qanday olish mumkin, degan savolga eng ko'p javob beradi. Shunga asosan, barcha amaliy topshiriqlar asosan o'quv adabiyotining muayyan illyustratsiyalari bilan ifodalangan predmet amallarini takrorlashga yo'naltiriladi. Bunga amal qilish natijasida kompyuterga kiritiladigan buyruqlarni bajarishning ma'lum tartibida belatlangan natijasini olish mumkin. Mazkur ta'lim usuli faqatgina bitta foydalanuvchi interfeysi mavjud bo'lgan hollarda ishlaydi. Biroq, kompyuter tizimlari uchun mo'ljallangan maxsus dasturiy ta'minot uchun xos bo'lgan muqobil interfeyslarni, shuningdek, Googlening barcha xizmatlari, internet-dasturlar (Google Docs) internet-dasturlar va Solaris, MAS OS X, Linux, Unix kabi va boshqa operatsion tizimlarni qo'llashda buyruqlarni mexanik takrorlash ko'pincha samarasiz bo'ladi. Zamonaviy yondashuv kompyuterga kiritiladigan buyruqlar ketma-ketligini bajarishda qanday harakat qilishni takrorlashni emas, balki

foydalanuvchi interfeys va ilovalarning nomlaridan qat'i nazar, harakatlarning obyekt sifatida yoki bu harakatlarning natijasi sifatida nimani belgilashini ongli tushunishni talab qiladi. Shuning uchun, dolzarb kasbiy kompetensiyalar omili axborotlashtirishning sifat jihatidan yangi, zamonaviy darajada namoyon bo'lgan, yuqorida aytib o'tilgan global tarmoq ta'minoti omili bilan birgalikda ta'limning doimiy muammosini qayta aniqlaydi. Zamonaviy ijtimoiy shaxs ijtimoiy-madaniy faoliyati to'laqonli subyekti sifatida qabul qilinsa, nimani va qanday o'rganish lozim degan savol vujudga keladi.

Axborot resurslaridan zamonaviy foydalanuvchini inson ta'limining uzluksizligiga qaratiladi, bu esa ilm-fan va amaliyot tarixi kontekstida fundamental bilim qiymatini tan olishda ifodalanadi, xususan, o'z navbatida, internet texnologiyalari rivojlanishining so'nggi tarixini aniqlaydigan zamonaviy operatsion tizimlar faoliyatlari ayrim xususiyatlaridan ustunlik qiladi.

Jamiyatni zamonaviy texnologiyalar asosida axborotlashtirish, bir tomondan, axborot texnologiyalar sohasidagi o'qituvchilarni tayyorlash uchun, ayniqsa, informatika fani o'qituvchilarini tayyorlash uchun mavjud talablarni o'zgartiradi. Boshqa tomondan esa, oliy ta'lim pedagogikasi metodologiyasi va nazariyasini, shuningdek, avvaldan shakllanib kelgan yuqori malakali pedagog kadrlar tajribasini inkor qilish juda noto'g'i hisoblanadi.

Tarixiy jarayonlar silsilasida rivojlangan pedagogik tizimlar o'z tarkibida murakkab va shu bilan birga tashqi sharoitlarga nisbatan ochiq sanaladi. Ichki va tashqi ta'lim muhitidagi muhim tarixiy voqealar hamda ta'lim tizimidagi amalga oshirilayotgan muqarrar o'zgarishlar avvaldan qabul qilingan o'quv dasturlari va harakat usullarining yangi sharoit va talablariga mos kelmasligiga olib kelishi mumkin. Shu bilan birga, pedagogik tajriba va yangi ma'lumotlarning bir-biriga nisbatan muayyan darajadagi nomutanosibliklari katta yoki kichik darajada nafaqat qiyinlashtirishi, balki kerakli natijaga erishishga ham hissa qo'shishi mumkin.

Agar, bizning tadqiqotimizning asosiy maqsadi bo'lajak informatika o'qituvchilarini kasbiy tayyorgarligini pedagogik sifatini

boshqarishni takomillashtirish yo'llarini topishdan iborat bo'lsa, unda birinchi navbatda, mavjud pedagogik jarayonni eng barqaror va shu bilan birga, pedagogik jarayonning asosiy komponentlarini aniqlash va o'zgartirish uchun yangilarga moslashtirishga harakat qilish kerak emas.

Darhaqiqat, inson bilimining ilmiy va amaliy sohasidagidek, kundalik inson hayotini axborotlashtirish va informatikani jadal rivojlantirish oqibatida, ijtimoiy munosabatlar dinamik madaniy - rivojlangan o'zgarishlar sharoitida, jamiyat axborot-kommunikatsion talablari ko'pincha mavjud ta'lim standartlari axborot va texnologik imkoniyatlarini yetarli darajada ortda qoldiradi. Lekin ta'lim standartlari ham shunga ko'ra doimiy ravishda yangilanib boradi. Shuning uchun, informatika fani o'qituvchilarining axborot-texnologik tayyorgarligining yuqori sifatini belgilovchi eng istiqbolli va samarali mezonlarni aniqlash orqali mavjud ijtimoiy talablar va imkoniyatlar, ta'lim standartlarining ilg'or kombinatsiyasi asosida sifatni boshqarish tizimini joriy etish maqsadiga erishish mumkin.

Ushbu tadqiqotning konseptual darajasida bo'lajak informatika fani o'qituvchilarining axborot-texnologik tayyorgarligi samaradorligini oshirish yo'llarini izlab topish, uning talab etilgan yuqori sifati nafaqat standartlar talablariga, balki mahalliy va xalqaro mehnat bozorining talablariga ham javob berishi kerak. Shuning uchun, bo'lajak informatika o'qituvchisini tayyorlash sifatini boshqarish zamonaviy oliy ta'limning yetarli pedagogik natijalarining aniqlik darajasi oshib boradigan, ijtimoiy aniq va oldindan erishish uchun taxmin qilinadigan maqsadli tashkil etilgan ixtisoslashtirilgan metodik model, axborot-kommunikatsiya boshqaruvning maxsus ilg'or turi sifatida taxmin qilish mumkin. Mazkur ta'rif informatika o'qituvchilarini tayyorlash bilan bog'liq konseptual va shunga mos ravishda, metodologik tamoyiliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Bunda o'qitish sifatini baholash o'qitish jarayonining ijobiy tomonga o'zgarish darajasini tahminlaydi va mazkur jarayon yetarli darajada dinamik bo'lishi kerak. Bu esa axborot-texnologik o'qitish loyihasida pedagogik jarayonning rivojlanish mezonlariga muvofiq bo'lishi lozim.

Mezonlarning tuzilishi bo'lajak informatika o'qituvchisining o'qitish sifatini belgilovchi asosiy komponentlar hamda zamonaviy mutaxassis tayyorlash tuzilmasiga adekvatdir. Biroq u hozirgi ommaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari talablari bo'yicha ortib borayotgan, jadallashganligi bilan farq qiladi. Har qanday zamonaviy mutaxassisning kasbiy faoliyatga tayyorgarlik darajasini baholashda keng tarqalgan mezonlarga asoslangan komponentlarni oldindan belgilash maqsadga muvofiqdir:

- mintaqaviy komponent, mahalliy mehnat bozorida talab katta bo'lgan milliy va mintaqaviy ta'lim imkoniyatlari va xususiyatlarini o'zida aks ettiradi;

- standart komponent oliy ta'limning davlat ta'lim standartlari tomonidan belgilanadi, bu mutaxassisning ta'lim darajasini hamda uning mazmunining majburiy minimum talablarini belgilaydi;

- oliy ta'lim komponenti ta'lim yo'nalishi bitiruvchilari uchun qo'shimcha tadqiqot va yo'naltirilgan-amaliyot talablari bilan tavsiflanadi. Madaniyat, an'analar va alohida oliy ta'lim ilmiy va o'quv faoliyati tajribasini rivojlantirish hamda namoyish etishni davom ettirishi bilan o'zaro farqlanadi.

Yuqorida sanab o'tilga ushbu komponentlarning barchasi umumkasbiy tayyorgarlik sifatini, uning muhim xususiyatlarining muayyan majmui sifatida belgilaydi. Shuningdek, sifat tushunchasi va kasbiy ta'lim sifati yetarli darajada aniq emas hisoblanadi. Asosan zamonaviy global dunyoda maxsus yo'naltirilgan amaliyot ko'rinishidagi o'zaro intensiv axborot-kommunikatsiya ta'sir, bunda bo'lajak informatika fani o'qituvchisini tayyorlash sifati o'z-o'zini aniqlash kasbiy sifati hamda uning hayotiy sifati bilan bog'liq ravishda rivojlanadi.

1.2-§. Bo'lajak informatika fani o'qituvchilarining axborot-texnologik tayyorgarligini rivojlantirishda asosiy yondashuvlar

1.2.1-§. "Sifat tushunchasi" ta'lim jarayoni doirasida eng muhim tarbiyaviy jihatlarni aniqlashtirish sifatida

"Sifat" tushunchasi zamonaviy jamiyatda, xususan, falsafa va fanda turli yo'llar va uslublar bilan belgilanadi. Ko'pgina hollarda sifat

birinchi navbatda real bir obyektning boshqa obyektidan qanday farq qilishini ko'rsatuvchi kategoriya sifatida ya'ni "obyektning zaruriy definitivligi tufayli aniqlanadi. Aristotel tomonidan "sifat" tushunchasi" o'ziga xos farq, shu turga mansub boshqa bir shaxsdan ma'lum bir shaxsni ajratib turadigan o'ziga xos xususiyat deb ta'kidlagan.

Subyektning mohiyatini yana ham chuqurroq nazarda tutsak, sifat kategoriyasi G.V.Gegel tomonidan tavsiflangan, uning ta'rifiga ko'ra, sifat har qanday tashqi mezonlarning ixtiyoriy mavjudligini istisno etadi. Gegelning fikriga ko'ra, sifat "borliq bilan odatda bir xil bo'lgan aniqlik hisoblanadi, shuning uchun biror narsa yoki hodisa o'z sifatini yo'qotganda, nima bo'lishini to'xtatadi, ko'zlangan natijaga o'xshamasdan qoladi" degan fikrni ilgari suradi.

Shu nuqtai-nazardan olib qaraganda, sifatni belgilash Gegelning fikridan ko'ra, Aristotelning fikri ko'proq to'g'ri keladi: "Sifat-bu obyektiv borliqdan ajralmaydigan obyektning zaruriy muayyanligini ifodalovchi falsafiy kategoriya hisoblanadi". Sifat obyektning tarkibiy elementlari o'rtasidagi o'zaro barqaror munosabatlarni o'zida aks ettiradi hamda uning o'ziga xosligini tavsiflaydi. Bu esa o'z navbatida bir obyekt boshqasidan yetarli darajada farqlash imkonini beradi. Sifat sababli har bir obyekt mavjud va boshqa obyektlardan cheklangan narsa yoki hodisa sifatida talqin qilinadi".

Axborot ta'lim muhitiga ISO-9000-2000 xalqaro standartlarida berilgan ta'rifga ko'ra, sifat o'rnatilgan talablarga asosan obyektning o'ziga xos xususiyatlarini belgilaydigan muvofiqlik darajasi sifatida ta'riflanadi. Bunday holda, sifat obyekt obyekt deb – ko'rib chiqilgan va ta'riflangan, ya'ni faoliyat ham, jarayon ham, ko'rsatilgan mahsulot va xizmat, shuningdek tashkilot, boshqaruv tizimi yoki ularning kombinatsiyasi sifat obyekt bo'lishi mumkin. Sifat tushunchasi itiqbolga, uning har tomonlama ko'rib chiqilishiga bog'liq hamda shuning uchun tadqiqotchining manfaatlariga yoki insonning mavjud kundalik ehtiyojlariga to'la mos keladigan falsafiy, sotsiologik, texnik va boshqa jihatlar deb ham faraz qilish mumkin.

Sifatni boshqarish muammosi O.G.Shukin tomonidan atroflicha o'rganilgan bo'lib, "Sifat-muvofiqlik darajasi; talablar va xususiyatlarga

xos muvofiqlik darajasi sifatida: belgilangan ehtiyojlar yoki taxminlar uchun alohida xususiyatlarga xos bo'lib, odatda, taxminiy va majburiydir" deb ta'kidlagan.

"Sifat tushunchasi" ta'lim jarayoni doirasida eng muhim tarbiyaviy jihatlarini aniqlashtirish sifatida, shuningdek, ta'lim jarayonining barcha sohalarini qamrab olishni ham talab etadi. Kasbiy tayyorgarlik jihatlarining kengligi sifat nuqtai-nazaridan ko'rib chiqilgan uni baholashga ko'plab yondashuvlarni belgilaydi.

V.N.Nujdin, A.I.Tixonov, G.G.Kadamseva, Ye.R.Panteleyevlar oliy ta'lim amaliyotiga nisbatan birinchi navbatda sifatning iste'mol tushunchasini ilgari suradilar: ular o'z tadqiqotlarida "...sifat g'oyasi oliy ta'lim xodimlari hamda mijozlarining shahsiy qarashlari hamda e'tiqodlariga bog'liqdir" degan g'oyani qo'llab-quvvatlaydilar. Bu yondashuv bilan sifat tushunchasi subyektiv va faqat intuitiv tushungan holda, butunlay noaniq bo'ladi. Mazkur yondashuv tarafdorlari sifat darajalarini baholashda "... avtomatlashtirilgan axborot tizimlarni qurish emas, balki mavjud muammoning yechimini tajribali professorlar zimmasiga qo'yish ma'qul" deb hisoblaydilar[52].

Qarama-qarshi yondashuvga ko'ra, sifat tushunchasi ta'rifi ayrim, kontekstual va semantik, aniq va jarayonli terminlarda aniqlanishi mumkin. Shuning uchun, ayrim o'xshash holatlar mavjud bo'lganda, sifatni qiyosiy baholash mumkin bo'ladi. Lekin mazkur yondashuv avvalo sifat boshqaruvida qabul qilingan mavjud zamonaviy sifat falsafaga, tasavvurlarga javob bermaydi. Bunga asosan, oliy ta'lim tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlari farazlarini taxmin qilgan holda, taktik yoki mehnat bozori holatlaridan kelib chiqqan holda emas, balki jamiyat talablariga yetarli eng yuqori ko'rsatkichlarga erishishga tayangan holda, kasbiy faoliyatga tayyorgarlik bo'yicha ta'lim maqsadlari va natijalari ilg'or rejalari imkoniyatidan kelib chiqishi lozim.

Bizning tadqiqot mazmuniga yaqinroq hisoblangan ushbu istiqbolli yondashuv, oliy ta'lim faoliyatini baholash obyektiv mezonlarini belgilamasdan hamda sifatni boshqarish va bu bo'yicha eng samarali

yechimlarni, sifatni nazorat qilish vositalarini tanlamasdan turib, amalga oshirilishi mumkin emas.

Pedagog olim M.M.Potashnik o'z tadqiqotlarida: "... ta'lim sifati ta'lim jarayonining fenomeni va atributi sifatida loyihalash xususiyatiga ega ekanligini ta'kidlaydi. YA'ni har qanday boshqaruv subyektining loyihalash ishlari predmeti bo'lishi mumkin va lozim" deb hisoblaydi[58;20].

Shunga o'xshash fikrlar E.M.Korotkovning tadqiqotlarida ham o'z aksini topgan bo'lib, "sifat ijtimoiy-iqtisodiy tizimda boshqa har qanday jarayon kabi o'z-o'zidan paydo bo'lmasligi aniqlangan. Bu asosan boshqariladigan jarayon bo'lib, uni samarali boshqarish muammolari haqida o'ylashimiz kerak"—deb ta'kidlanadi[37;226].

Maqsadli-perspektiv yondashuvda ta'lim ma'muriyatining vazifalari kamchiliklar yoki yutuqlar bayonnomasi bilan belgilanmasligi kerak, shuningdek, ular faqat bitta joriy nazoratga yig'ilmasligi lozim. Eng asosiysi kelajakni bugundan -kelajakka yo'nalishida, talabalarni o'qitishning eng yaxshi sifati ilmiy - tadqiqotga asoslangan ta'lim muhitini yaratish hisoblanadi. Sifatli ta'limning yuqori qiymatiga ega bo'lgan muntazam va dinamikli ijobiy o'zgarishlari barcha oliy ta'lim muassasasi xodimlarining eng asosiy maqsadlari bo'lishi talab etiladi.

Kasbiy faoliyatga tayyorgarlikning yuqori sifati qandaydir ma'nodagi mavhum va erishib bo'lmaydigan idealni o'zida ifoda etmaydi. Aksincha, bujarayon oliy ta'lim muassasasi xodimlarining ma'lum bir kasbiy-axloqiy normalari sifatida qaralishi lozim. Bu holat V.M.Goncharenko, L.P.Kachalova, D.V.Kachalov va tomonidan aniqlangan bo'lib: "Sifat menejment obyekti sifatida, ta'limga nisbatan, ta'limning natijasi mos keladigan meyoriy daraja hisoblanadi"— deb ta'kidlanadi[37; 13].

Boshqa tomondan, ISO 9000-2001 axborot ta'lim muhiti standarti sifatini boshqarish eng muhim tamoyillardan biriga - ta'lim xizmatlari iste'molchilariga yo'naltirish tamoyiliga muvofiq bu iste'molchilar "ishki", ya'ni talabalar va ta'lim natijalari iste'molchilari bo'lgan "tashqi" omillardan iborat bo'lishi mumkin. Talabalar nuqtai-nazaridan olib qaraydigan bo'lsak, sifat talabaning shahsiy salohiyatini

tasdiqlashda va uning yetarli darajada amalga oshishida zaruratini qondirish darajasi sifatida qaralishi mumkin. Kasbiy tayyorgarlik sohasida davlat, jamiyat va oliy o'quv yurtlari ta'lim beruvchi tashqi iste'molchilar hisoblanadi. Tashqi iste'molchilarning talab va ehtiyojlari hamda mehnat bozori umuman olinganda, OTM bitiruvchilarining bilim, malaka, ko'nikmasi va ularni tayyorlashning haqiqiy sifati bilan bog'liq natijalarga muvofiq ifodalanadi. Davlat asosiy buyurtmachi sifatida oliy ta'limning Davlat ta'lim standarti shaklida axborot-texnologik tayyorgarlikning tuzilishi hamda mazmuniga qo'yiladigan talablarni belgilaydi.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan hulosalar qiladigan bo'lsak, axborot-texnologik tayyorgarlik sifatini ko'rib chiqish ichki va tashqi iste'molchilarning qiziqish va talablarini har tomonlama taqqoslashni talab qiladi. Natijada ta'lim sifatini turli guruh iste'molchilarining jami kutilishlarini va talablarini qondirishning ijtimoiy reyting tavsifi sifatida baholash mumkin degan hulosaga kelishga undaydi[28; 29-30].

1.2.2-§. Sifatni baholashga nisbatan yondashuvlar

Oliy ta'lim jarayonini tizim sifatida ko'rib chiqishda, biz qo'shimcha ikkita yondashuvni qayd etishimiz mumkin: birinchisi, ijtimoiy reyting ya'ni, ta'lim xizmatlari iste'molchilarining maqsadlariga muvofiqlik darajasi sifatida sifatni aniqlash yoki ikkinchi yondashuv bozor yondashuvi. Ikkinchi yondashuv, birinchi yondashuvning uzviy davomi sifatida davom ettiradigan, lekin ichki jarayonga nisbatan ta'lim jarayoni doirasida kechadigan, ya'ni kasbiy reyting hisoblanadi. Shunday qilib, bir vaqtning o'zida mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash sifatini kamida ikki jihatdan ko'rib chiqish maqsadga muvofiq: birinchi jihat yakuniy mahsulot, ya'ni mutaxassisning o'quv natijalari sifatini baholash nuqtai-nazaridan va boshqa jihatdan, kasbiy tayyorgarligi sifatini baholash jarayoni bo'yicha ko'rib chiqish maqsadga muvofiq.

Xalqaro darajadagi qabul qilingan ta'lim konsepsiyasida, tizimlarning ta'lim sifatini baholash faoliyatiga nisbatan, ta'lim sifati deb "erishilgan haqiqiy ta'lim natijalarining muvofiqligi darajasini hamda ta'lim jarayonini tartibga solish talablari ta'minlanganlik

sharoitlari, ijtimoiy va shahsiy taxminlar darajasini aks ettiruvchi ta'lim tizimining tavsifi" sifatida qaraladi[61].

Oliy ta'lim jarayonida ta'lim sifatini baholash tizimida "talabalarining ta'lim yutuqlarini, ta'lim muassasalari faoliyati hamda ushbu tizimlarning ishlash samaradorligini, ta'lim xizmatlari asosiy iste'molchilarining talab va ehtiyojlarini har tomonlama hisobga olgan holda, ta'lim dasturlarining sifatini baholash yagona konseptual va uslubiy baza asosida ta'minlanadigan, tashkiliy va funksional tarkibiy tuzilmalar, meyorlar va qoidalar majmui" deb ta'riflanadi[59].

Sifatni baholashga nisbatan yondashuvlar turlicha bo'lib, ular ko'rib chiqiladigan maqsad va jihatlariga bog'liq ekanligi aniqlangan. Xalqaro ta'lim amaliyotida sifatni baholashning beshta asosiy yondashuvi mavjud bo'lib ular ilmiy-tarbiyaviy, an'anaviy, boshqaruv, iste'molchi va demokratik yondashuvlardan iborat[27; 16].

Ilmiy-tarbiyaviy yondashuv talabalar ta'lim sifati va ularning kasbiy faoliyatga tayyorgarligi sifati oliy ta'limning amaldagi standartlariga muvofiqlik darajasi bilan belgilanishiga asoslanadi.

An'anaviy yondashuvga asosan, ta'lim muassasalarida sifatni ta'minlash - nufuzli oliy ta'lim muassasasida ta'lim olgan bitiruvchilar birinchi navbatda talab etiladi va mehnat bozorida ko'proq va yanada qulay o'rinlarni egallaydi. Kadrlar tayyorlash sohasidagi zamonaviy menejment nuqtai-nazardan olib qaraydigan bo'lsak, ta'lim sifati shunday ta'lim hisoblanadiki, ularning bitiruvchilaridan salohiyatli ish beruvchilar har tomonlama qoniqish hosil qiladilar.

Iste'mol yondashuvida, ta'lim xizmatlari izlanuvchisi mustaqil ravishda ularning sifatini belgilaydi hamda amalda ularning qiymatini shahsiy ishlab chiqilgan baholash tizimi asosida ta'lim muassasasiga ularni taqdim etish shartlarini aytishi mumkin.

Demokratik yondashuvda, ta'lim sifati oliy ta'lim muassasasi joylashgan hudud ichidagi davlat belgilagan qiymat va talabiga qarab belgilanadi.

Shunday qilib, ta'lim sifatining baholash mezonlari bilvosita ekspertning yondashuviga bog'liq bo'lib, zamonaviy mehnat bozorida

uning o'rniga har qanday manfaatdor shaxs, bitiruvchisidan hukumat a'zosi yoki deputatgacha talabgor bo'lishi mumkin.

Ta'lim sifati avvaldan belgilangan bir qator parametrlar bo'yicha yuqori ko'rsatkichlarga mos kelishi mumkin. Shu bilan birga boshqa mezonlar bo'yicha esa past natijalarga ega bo'lishi ham mumkin. Sifatni baholash tizimi "turli yondashuvlar va qiziqishlardan kelib chiqqan holda elementlari har xil tartibda aniqlanadigan ko'p o'lchovli, murakkab tizim" sifatida ko'rib chiqilishi lozim[37; 16].

Birinchi qarashda, dastlab bunday xulosaga ergashib, oliy ta'lim muassasasi tomonidan taqdim etiladigan ta'limga muvofiq odatda butunlay obyektiv va yagona mezonni belgilash mumkin emas. Unga ko'ra ta'lim yuqori sifatli aniq ta'lim sifatida belgilanadi. Shu bilan birga, kasbiy tayyorgarlikning turli jihatlarini yetarli darajada hisobga olgan holda, mos yozuvlarga nisbatan ta'lim sifatini ekspert baholash orqali talabalarini taxminiy taqqoslash mumkin. Asosan, oliy ta'limning mavjud standartlari qabul qilingan baholashga nisbatan reyting yondashuv yetarli bo'lib qolmoqda.

Tadqiqot muammosiga nisbatan axborot-texnologik tayyorgarlik sifatini ko'rib chiqishda, D.V.Bastrikinning fikrini inobatga oladigan bo'lsak, unga ko'ra, bir birini to'ldiradigan funksional, tizimli, jarayonli, murakkab, miqdoriy, tarkibiy kabi bir qator yondashuvlarni hisobga olish kerak bo'ladi. Hozirgi kunda mazkur yondashuvlar ma'lum nazariy yondashuv va uslubiy vositalar majmui asosida aniqlanadi, ularning o'zaro bir-biri bilan birlashishi sifat baholash tizimi faoliyatining eng muhim xususiyatlarini ta'riflashga imkoniyat beradi.

Sifatni boshqarishda *tizimli yondashuvning* mohiyati shundan iboratki, kasbiy tayyorgarlik jarayonini alohida tizim sifatida o'rganish metodikasiga asoslangan bo'lib, unda o'quv natijalari uchun eng muhim bo'lgan ichki va tashqi aloqalar asosiy elementlar sifatida aniqlanadi. Ta'lim tizimini tashkil etuvchi har bir quyi tuzilmaning maqsadlari butun tizimning yagona markaziga muvofiq ishlab chiqiladi. Tizimni boshqarish natijasi elementlarning bir-biri bilan shunday o'zaro aloqasini ta'minlaydiki, bunda tizimning faoliyati amalga oshiriladigan funksiyalar va rejalashtirilgan maqsadlarga muvofiq belgilanadi. Asosiy

vazifa tizim faoliyatining belgilangan holatini rejalashtirish bilan ta'minlangan holda belgilashdan iborat. Tizimli yondashuvning asosiy murakkabligi shundan iboratki, tizim ichidagi va uning tashqarisidagi o'zgarishlarni bir-biri bilan solishtirishdir. Shu bilan birga, agar sifat menejmenti tizimini yaratish maqsad qilib belgilangan bo'lsa, sifatni baholash tartib-qoidalarini ishlab chiqish, o'quv jarayonining asosiy vazifalarini ishlab chiqish, unda tizim yondashuvining asosiy qoidalari boshqa mumkin bo'lgan yondashuvlar oldida talab qilinadi.

Jarayonli yondashuvni ta'riflaydigan bo'lsak, unga ko'ra boshqaruvni ta'minlovchi bir qator funksiyalarning o'zaro bog'liqligidagi holati asosida ko'rib chiqiladi. Jarayon bu rejalashtirish, o'quv faoliyatini tashkil etish, mehnat bozorini tadqiq etish, ta'sir etuvchi barcha parametrlarni hisobga olish, amalga oshirish mexanizmlarini nazorat qilish, tahlil qilish, tartibga solish va optimal rag'batlantirishga qaratilgan o'zaro bog'liq bo'lgan harakatlar tizimi sifatida tushuniladi. Jarayonli yondashuvning ilmiy-nazariy asosini ta'lim sifatini boshqarish tizimini takomillashtirish g'oyalari tashkil etadi.

Funksional yondashuv odatda sifatni boshqarish tizimi ichidagi tizimli va jarayonli yondashuvlar bilan birgalikda qo'llaniladi. Funksional yondashuv orasidagi ehtiyojlar parametrlari tizimning umumiy maqsadlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishni ta'minlovchi funksiyalar majmuini belgilash orqali ko'rib chiqiladi. Funksiyalar ta'rifidan so'ng, sifatni baholash natijalariga erishishning bir necha xil usullari taklif etiladi, shuning uchun sifatni boshqarish tizimi asta-sekin optimal iqtisodiy samaradorlik nisbatidan foyda keltiradigan usulni tanlaydi.

Murakkab yondashuvda oliy ta'limning sifatni boshqarish tizimi "ichki" va uning tashqi muhitiga kiritilgan kasbiy tayyorgarlikning turli jihatlarini har tomonlama taqqoslash jarayonini o'z ichiga oladi. Sifatni boshqarish tizimini har tomonlama o'rganish asosida uning holatini ma'lum bir baholar to'plami asosida baholash mumkin. Ta'lim predmetining metod va vositalari, yondashuvlar majmui, ya'ni turli xususiyat va munosabatlarda alohida ko'rib chiqilishi va tavsiflanishi

mumkin. Tizimli va murakkab yondashuvlar asosida sifatni boshqarish muammosi ma'lum qadar murakkab muammo bo'lib, uning tashkiliy, ma'muriy, texnik, ijtimoiy jihatlari birligida, asosan, bir vaqtning o'zida ushbu muammoni hal qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun hisobga olinishi zarur degan hulosaga kelingan.

Miqdoriy va sifat yondashuvlari dialektik ya'ni, miqdor va sifat o'zgarishlarining o'zaro olib tashlanishi va boshqa qonuniyatlarga asoslanadi. Ma'lum bir o'zgarishni boshqasi bilan olib tashlanishi sifat menejmenti tizimining biron-bir qismi faoliyatini baholashda sifat va miqdoriy tahlilning turli usullari orqali aniqlanadi. Mazkur yondashuvlar sifat bo'yicha yuqoriga siljishlarni miqdoriy o'zgarishlar bo'yicha kuzatish, ya'ni matematik usullarni yanada qo'llash uchun sifatni kamaytirish yoki yaxshilash, miqdoriy ko'rsatkichlar ko'rinishida sifat baholarini taqdim etish muammolari yuzaga kelishini aniqlash imkonini beradi. Baholash tizimida miqdoriy va sifatli yondashuvlardan foydalanish mohiyatan murakkab yondashuv turidir.

Tarkibiy-tuzilmaviy yondashuv omillar, uslublar, tamoyillar va boshqa texnik va dasturiy vositalar orasida resurslarni oqilona taqsimlash maqsadida ustuvorliklarni aniqlashdan iborat. Sifatni boshqarishda tarkibiy yondashuvni amalga oshirish reyting omillarini, shuningdek tadqiqot obyekti va boshqaruv funksiyalarini dastlabki tizimlashtirish jarayonini o'z ichiga oladi.

Ilmiy-amaliy jihatdan yuqori sifatli ta'lim jarayonini aniqlash, oliy ta'limni boshqarishning barcha darajadagi boshqaruv tizimi faoliyatini o'z ichiga oladi. Shu jumladan, hatto yordamchi jarayonlar sifatini baholashni tashkil etishga qadar, oliy ta'lim pedagogik tizimi optimal faoliyati bo'lgan taqdirda taqdim etilishi mumkin.

Shuningdek, axborot-texnologik tayyorgarlikning sifat menejmenti tizimi oliy ta'lim muassasasining yagona pedagogik jarayoniga integratsiyalashgan holda amalga oshiriladi. Ta'lim jarayonining yuqori sifati yuqori malakali zarur kadrlar, moddiy-texnika bazasi, axborot kommunikatsiya texnologiyalari va vositalari hamda boshqa resurslarning mazmuni va mavjudligi bilan belgilanadi.

Shuning uchun bo'lajak informatika fani o'qituvchisining axborot-texnologik tayyorligining har tomonlama baholanadigan sifati o'zaro bir-biri bilan bog'liq komponentlarning murakkab, batafsil tuzilishi sifatida qaralishi haqiqatdir. Haqiqatdan ham, ta'lim tizimi tarkibida hamda, undan tashqarida ham bir qancha omillar mavjud bo'lib, Shuning uchun eng samarali yondashuvni tanlab olish, ularni baholashda matematik va statistik usullarni qo'llash darajasida nazariy hamda amaliy jihatdan omilli tahlil darajasida hal etilishi mumkin bo'lgan masala hisoblanadi.

Bularning orasida eng maqbul yondashuv rivojlanayotgan kasbiy-ta'limiy vaziyat voqeliklariga moslashuv darajasining ortib borishi bilan belgilanadi. Zamonaviy oliy kasbiy ta'lim tashqi, dinamik o'zgaruvchan sharoitlarning intensiv ta'sirlariga har tomonlama bo'ysunadi, lekin ularning har biri sifatni boshqarishning muayyan usullaridan foydalanishni belgilovchi samarali pedagogik jarayonni tashkil etishning muhim sharti bo'lib hisoblanmaydi. Ta'lim sifatini baholashda bir yoki bir nechta yondashuvni tanlash masalasi tamoyiliy ravishda ochiq bo'lib qolmoqda, bu esa mavjud holatni vaziyatli yondashuv deb atalishini anglatmaydi va ta'limning kasbiy sifatini boshqarishda sezilarli farqlarni bartaraf etilishini ta'minlaydi.

1.3-§. Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak informatika fani o'qituvchilarining axborot-texnologik tayyorgarligini rivojlantirishning mohiyati va sifati

1.3.1-§. Oliy ta'limning mutaxassis tayyorlash sifati

Ta'lim tizimidagi ijtimoiy buyurtma zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va multimediya texnologiyalaridan yetarli darajada foydalana oladigan mutaxassis, informatika o'qituvchilarini axborot-texnologik tayyorgarligini rivojlantirishni talab qiladi. Boshqa tomondan, bo'lajak informatika o'qituvchilarining madaniy-sivilizatsion missiyasi axborot jamiyati sharoitida o'ziga xos axloqiy qadr-qimmatini yo'qotmagan holda to'liq rivojlana oladigan yangi avlodini tarbiyalashdir. Ushbu axborot-kommunikatsiya missiyasida bo'lajak informatika o'qituvchisi yagona hisoblanmaydi, chunki axborot texnologiyalari kompetentligi, hech bo'lmaganda barcha

zamonaviy mutaxassislariga xos bo'lsa-da, har qanday kasb bo'yicha oliy ta'lim tizimida eng muhimlaridan biridir.

Faoliyatning turli sohalarida kasbiy muammolarni hal etishga qaratilgan turli xil dasturiy vositalarning paydo bo'lishi va rivojlanishi oliy ta'lim muassasasi bitiruvchilarini kasbiy tayyorlashga muayyan talablarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Axborot texnologiyalarining jadal va dinamik rivojlanishi zamonaviy ta'lim tizimini boshlang'ich ta'limdan oliy ta'limgacha sezilarli va har tomonlama o'zgartiradi. Bir tomondan, ta'lim yangi imkoniyatlar kasb etsa, ikkinchi tomondan, yuqori sifatli axborot-kommunikatsion ta'lim berish orqali yangi avlodni axborot olamida muvaffaqiyatli va samarali hayot kechirishga tayyorlash uchun mo'ljallangan.

- talabalarining imkoniyatlari va ehtiyojlari asosidagi malaka talablariga moslashish maqsadida o'quv vaqtini qayta taqsimlay olish.

Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak informatika fani o'qituvchilarining axborot-texnologik tayyorgarligini rivojlantirish

modelida modulli ta'lim asosida ta'lim berish asosan an'naviy *ma'ruza, amaliy mashg'ulot, ko'chma mashg'ulot va mustaqil tayyorgarlik* shakllaridan iborat.

Biz tomonimizdan taklif etilayotgan model barcha ishtirokchilarning sinergetik o'zaro ta'siri asosida subyektivlikni, o'z-o'zini rivojlantirishni va oliy ta'lim muassasasining samarali faoliyat yuritishida kasbiy va shahsiy roli hamda ahamiyatini anglashga asoslanadi. Sinergetika - rivojlanayotgan murakkab tizimlarning o'z-o'zini tashkil etish qonuniyatlari haqidagi jarayon bo'lib, uning predmeti-o'z-o'zini tashkil etish mexanizmlaridir. Shuning uchun sinergetika o'z-o'zini tashkil etish nazariyasi ham deb ataladi. Oliy ta'limda sinergetik jarayon ta'lim beruvchining yetakchilik, boshqaruvchi rolini istisno etadi. Ta'lim beruvchi bilish faoliyati va uzluksiz ta'lim ishlariga qiziqishni rivojlantirishi, o'quvchilarning atrofda voqelikni o'rganishi va o'z taraqqiyot yo'lini izlashi kerakligiga undashini nazarda tutatdi. Sinergetik ma'noda ta'lim - bu tartibli tizim sifatida bilimlarni uzatish emas, balki keng bilimlar tizimida bilimlarni to'ldirish va tez moslashtirish yo'llarini o'zlashtirishdir. Sinergetika insonning o'zi va boshqa odamlar bilan yangi konstruktiv muloqotiga olib keladi, qaysiki tanlovni asoslash vositasi sifatida refleksiya, qadriyatlarni tushunish, ularni taqqoslash va o'z imkoniyatlari bilan bog'lash jarayonida aks etadi. Ta'lim oluvchi mazkur o'zaro ta'sirda o'z harakatlarini loyihalovchi va baholovchi sifatida subyektivligini namoyon etadi. Bunday o'zaro ta'sirning mohiyati tinglovchilarni ongli ravishda o'quv yoki kasbiy faoliyatida o'z-o'zini rivojlantirish, o'z-o'zini tarbiyalash va o'z-o'zini anglash uchun shart-sharoitlar bilan ta'minlashga asoslanadi. Axborot-texnologik tayyorgarlikning o'zida sinergetika nazariyasiga mos keladigan kasbiy o'z-o'zini rivojlantirish salohiyati yotadi. Taklif qilinayotgan model ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarining o'zaro sinergetik ya'ni hamkorlikdagi, birgalikdagi harakatlariga asoslangan bo'lib, oliy ta'lim muassasasining samarali faoliyat ko'rsatishida boshqaruv xodimlarining subyektivlik, mas'uliyat, o'z-o'zini rivojlantirish, tashabbuskorlik shuningdek, kasbiy va shahsiy rolini

muhimligini anglashi lozimligini nazarda tutadi. Talaba bu o'zaro ta'sirda o'z harakatlarini loyihalovchi va baholovchi sifatida harakat qiladi, yuqori darajadagi mas'uliyatni ko'rsatadi va subyektivlikni namoyon etadi.

Bo'lajak informatika fani o'qituvchilarining axborot-texnologik tayyorgarligini rivojlantirish bosqichlari, zamonaviy ta'lim shakllarining klasterli muhiti asosida axborot-texnologik tayyorgarlik modeli asosida tashkil etildi. Axborot-texnologik tayyorgarlikni rivojlantirishda muhim vazifa bu talabalarning ongini o'zgartirishga erishish deyish mumkin. Chunki ko'plab talabalar axborot-texnologiyalari sohasidagi vaziyatni anglashni xohlamay "tashqaridan" yordamni kutmoqdalar. Ongning o'zgarishi asosida sohadagi o'zgarishlar va ta'limga bo'lgan ehtiyoj tan olinadi. Ongning o'zgarish bosqichlari yangi mahoratni o'rganishda fikrlash doirasiga ta'sir qiluvchi ikkita omilni ajratib ko'rsatadi: ong (xabardorlik) va mahorat darajasi (kompetensiya).

Birinchi bosqichda biror bir faoliyatdan yoki topshiriqdan xabardor bo'lmagan holat nazarda tutildi. YA'ni eshtimagan, bilmagan xabardor bo'lmagan. "Dunning-Kruger effekti" - kasbiy tayyorgarlik illyuziyasiga ko'ra yuqori malakaga ega bo'lmagan odamlar noto'g'ri shakllanib qolgan tajribalari asosida o'zlarining malakasizligini ya'ni kompetentli emasligini tan olishlari qiyin kechadi. Lekin ta'limda mazkur holatni tashqi baholash ya'ni o'qituvchi tomonidan baholanishi asosida o'zgartirish mumkin.

Yuqoridagilarga asosan axborot-texnologik tayyorgarlikni rivojlantirishga oid nazariy, ilmiy manbalarni tahlil qilish hamda ta'lim xizmatlarini tashkil etishning bozor munosabatlari sharoitida egallashi lozim bo'lgan kasbiy kompetensiyalarga tayanib, o'quv modulini kompetensiyaviy yondashuv va zamonaviy ta'lim shakllarining klasterli muhiti asosida loyihalashtirish va innovatsion interfaol metodlarni qo'llash orqali bo'lajak informatika fani o'qituvchilarining axborot-texnologik tayyorgarligini rivojlantirish modeli ishlab chiqildi (2.1-rasm).

Ilmiy adabiyotlar va nazariy-metodologik manbalar tahliliga ko'ra "Kompetensiya" - bilim, ko'nikma, malaka va shahsiy sifatlar majmui,

rasmiylashtirilgan talablar, shuningdek muayyan bir organ yoki mansabdor shaxsning rasmiy hujjatlarda belgilangan vakolatlari doirasi sifatida talqin etilgan. "Kompetentlik" - shaxs sifati, fazilatlari majmui bo'lib, faoliyatida shahsiy, xulqiy munosabatlarini mujassam etuvchi kompetensiyalarni egallashni nazarda tutadi. Tadqiqotimizda kompetensiya va kompetentlik tushunchalari bilan uyg'unlikda kasbiy kompetentlik tushunchalari ilmiy o'rganildi.

Har bir kompetensiya o'z navbatida alohida maxsus bilimlar, ko'nikmalar, kasbiy faoliyatning minimal zarur shahsiy tajribasi, motivlar, qadriyatlarni o'zida mujassam etar ekan, mazkur kompetensiyalarning muayyan tarkibiy qismlari mazmunini umumlashtirgan holda, kasbiy kompetentlik mezonlari belgilandi:

Kognitiv komponent- asosiy tayanch axborot texnologiyalariga oid tushunchalar nazariyalar, modellar, kasbiy muammolar, usullar, rejalashtirish, nazorat va boshqalarni bilishni ta'minlaydi.

Motivatsion komponent kasbiy faoliyat uchun mavjud ehtiyojlar, axloq va qadriyat motivlari, kasbiy kompetentlikning komponentlarini o'zlashtirishga qiziqish kabi omillar bilan tavsiflanadi;

Amaliy komponent kasbiy muammolarni hal qilish, rejalar tuzish, kasbiy faoliyatda AKTdan foydalanish, kasbiy xulq-atvor normalariga rioya qilish va boshqalarni o'z ichiga oladi;

Shahsiy komponent muhim kasbiy sifatlarini: faollik, mustaqillik, kreativlik, qat'iyatlilik, tashabbuskorlik nazarda tutadi.

Bo'lajak informatika fani o'qituvchilarining axborot-texnologik tayyorgarligini rivojlantirish bosqichlari, zamonaviy ta'lim shakllarining klasterli muhiti asosida axborot-texnologik tayyorgarlik modeli asosida tashkil etildi.

Yuqoridagilarga asosan axborot-texnologik tayyorgarlikni rivojlantirishga oid nazariy, ilmiy manbalarni tahlil qilish hamda ta'lim xizmatlarini tashkil etishning xalqaro va mahalliy mehnat bozori munosabatlari sharoitida egallashi lozim bo'lgan kasbiy kompetensiyalarga tayanib, o'quv modulini kompetensiyaviy yondashuv va zamonaviy ta'lim shakllarining klasterli muhiti asosida loyihalashtirish va innovatsion interfaol metodlarni qo'llash orqali

bo'lajak informatika fani o'qituvchilarining axborot-texnologik tayyorgarligini rivojlantirish modeli ishlab chiqildi (2-rasm).

Mazmun darajasida shahsiy bashorat zanjiri orqali ariqlashtiriladigan dastlabki g'oya shakllanadi; bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashning maqsad va vazifalari belgilanib, ularni amalga oshirishning aniq chora-tadbirlari belgilab olinadi. Muammolarni hal qilish bo'yicha faoliyatning asosiy yo'nalishlari shakllantiriladi, natijalar haqida taxmin qilinadi.

Mazkur tarkib beshta o'zaro bog'liq va bir-birini to'ldiruvchi maqsad, texnologik- jarayonli, diagnostik va natija komponentlarni o'z ichiga oladi. Ushbu komponentlar o'zaro bog'liq hamda kreativ kompetentlikni ketma-ket rivojlantirishni, bashorat qilinayotgan darajadagi kreativ kompetentli bo'lajak mutaxassisning shahsiy va kasbiy sifatlarni rivojlanishini ta'minlaydi.

Biz tomonimizdan taklif etilayotgan metodik modelni ta'lim jarayoniga qo'llash natijasida kompetentli informatika fani o'qituvchisi tayyorlashga erishilgan.

Har qanday model kabi taklif etilayotgan model ham shartli va sxematik, shuning uchun o'rganilayotgan jarayonning barcha mumkin bo'lgan xilma-xil o'ziga xos ko'rinishlarini aks ettira olmaydi. Ta'lim jarayonida modelning bu komponentlari o'ziga xos mazmun bilan to'ldiriladi, bu esa nafaqat axborot-texnologik tayyorgarlikning bashorat qilingan rivojlanishiga, balki yangi-yangi bog'lanishlar (va elementlar) paydo bo'lishiga olib keladi.

2.2-§. Zamonaviy ta'lim shakllarining klasterli muhiti tashkillashtirish asosida informatika fanini o'qitish metodikasi

2.2.1-§. Ta'lim klasterining quyidagi didaktik imkoniyatlari

Mamlakatimizda oliy ta'lim tizimini rivojlantirish boyicha qabul qilingan "Oliy ta'limni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"da innovatsion ilmiy tadqiqotlar va ta'lim loyihalarini o'zida mujassamlashtirgan ilmiy-ta'lim markazlarini shakllantirish masalasi ustuvor vazifa sifatida belgilangan². Oliy ta'lim tizimini

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PF-5847 sonli Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/4545884>

takomillashtirish, mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish va uni biznes-jamiat talablariga moslashtirish nuqtai nazaridan rejalashtirilgan ta'lim topshiriqlarini hal etishning eng muhim sharti muayyan tarmoq muammolarini hal etishga yo'naltirilgan klaster shaklidagi ko'p bosqichli hududiy ta'lim tizimlarini yaratish va shakllantirish hisoblanadi. Shaxsni shakllanishining butun davrini qamrab oluvchi ta'lim klasterlarini rivojlantirish tashkiliy iqtisodiy ta'sir etish tamoyillari, ta'lim xizmatlari bozorini boshqarish metodlari va zamonaviy yondashuvlar, resurslarning o'zaro ta'siri, barcha ta'lim jarayoni ishtirokchilarining jamoaviy qiziqishlari va hamkorligini aniqlashni amalga oshirish imkonini beruvchi ta'lim sohasini tashqi bozor sharoitlariga moslashtirishning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Jahon iqtisodiyotida klasterlar paydo bo'lishining eng muhim sababi sanoatdagi texnologik o'zgarishlar ko'lamining cheklanishi va raqobatning kuchayishi hisoblanadi. Korxonaning bir o'zi bozorga kira olmaydi, u boshqasi bilan birlashishi kerak.

Mamlakatlar va mintaqalar raqobatbardoshligi bilan bog'liq klaster modeli M.Porter tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, uning fikriga ko'ra, klaster – bu geografik jihatdan qo'shni bo'lgan ma'lum bir sohada faoliyat olib boruvchi va bir-birini to'ldiruvchi hamkor (yetkazib beruvchilar, ishlab chiqaruvchilar va boshqalar) kompaniyalar hamda ular bilan bog'liq tashkilotlar (ta'lim muassasalari, davlat boshqaruvi organlari, infratuzilma kompaniyalari), guruhidir. M.Porter “raqobatbardosh” deb nom olgan, klaster doirasiga kiruvchi, tashkilotlarning afzalliklariga erishish shartlari tizimini belgilaydi, ularga:

- parametrlari shartlar: inson va tabiiy resurslar, ilmiy-axborot salohiyati, infratuzilma, kapital;
- ichki talab shartlari: jahon bozori talablarining rivojlanish kursiga o'xshashlik, talabning sifat va hajmga muvofiqligi;
- xizmat ko'rsatish va turdosh sohalar: zamonaviy texnologiyalar va xom ashyoni, yarim tayyor mahsulotlar va asbob-uskunalar hamda xom ashyo bilan ta'minlash sohalar;
- tashkilotning tuzilishi va strategiyasi, tashkilotlarning tarmoq

ichidagi raqobati: maqsadlar, firmalarni boshqarish, tashkil etish usullari, strategiyalar, tarmoq ichidagi raqobat[Ошибка! Источник ссылки не найден.].

Shunday qilib, “klaster” tushunchasi ishlab chiqarish muhitidan mintaqaviy klaster, ta'lim klasteri kabi pedagogik tushunchalariga o'zgardi. Klaster tushunchasi ishlab chiqarish, iqtisodiy klaster tushunchasidan ijtimoiy klaster, ta'limda innovatsion jarayonlarni shakllantirish klasteri va boshqalar. Ushbu atamaning etimologiyasini tahlil qilgan holda, uni birlashma, sektor, qator kabi an'anaviy tushunchalarga mos holda, Ye.I.Sokolovning ta'rifiga ko'ra, ta'lim klasteri faqatgina mexanik birlashma xususiyatiga ega emas. Ta'lim klasteri ta'lim mazmunini yangilashning mobilligi, funksionalligi va jamiyati tomonidan talab qilinadigan ta'lim yo'nalishlarining maqsadga muvofiq integratsiyalashning ulkan imkoniyatlari bilan ajralib turadi[65].

Mintaqaviy klasterlar nazariyasi M.Enrayt tomonidan taklif etilgan. Muallif davlatlar ichidagi raqobatbardoshlikning sohasiy farqlari va geografik ko'lamda raqobatbardosh ustunlikni o'rganib chiqdi. Uning ta'kidlashicha, raqobatbardosh ustunliklar mintaqaviy darajada shakllanadi, bunda milliy darajada hududlarning tarixiy va madaniy rivojlanish jihatlari, biznesning turli ko'rinishlari, ishlab chiqarishni amalga oshirish va ta'limning xilma-xilligi asosiy o'rinni egallaydi. U mintaqaviy klasterlar davlatning klaster siyosatini amalga oshirishning asosiy obyekti hisoblanadi degan go'yani ilgari suradi[192].

MDH davlatlarining ta'lim tizimida klasterlardan foydalanish bo'yicha tadqiqotlar G'arb davlatlaridan keyin boshlandi, ammo shunga qaramay, ushbu tushunchalarni aniqlashga katta hissa qo'shildi. Tadqiqotchilar A.Y.Uvarova, D.B.Kravchenko, O.V.Kiseleva, R.N.Abitova, I.E.Vildanova, Ye.A.Korchagin, I.Y.Malkova, L.D.Medvedeva, V.V.Proxorova, T.I.Pudenko va boshqalarning ilmiy tadqiqotlari o'quv jarayonida ta'lim klasterlarini tashkil qilish muammolariga bag'ishlangan. So'nggi bir necha yil ichida hududlarni rivojlantirish samaradorligini oshirish bo'yicha ta'lim klasterlarini joriy etishga qiziqish ortib bormoqda. Ta'lim tizimiga o'zgarishlar kiritish

uchun mintaqaviy darajada ta'lim klasterlaridan foydalanish maqsadga muvofiq. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida davlat iqtisodiyotini oshirishning asosiy yo'nalishlaridan biri iqtisodiyotda, ta'limda innovatsiyalarga bo'lgan ehtiyojni yetarli darajada rag'batlantirish, ilmiy tadqiqotlarni shakllantirish, barqaror ilmiy-ishlab chiqarish korporativ aloqalari, innovatsion tarmoqlar va klasterlarni shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratish hisoblanadi.

Bugungi kunga qadar "Klaster" tushunchasiga meyoriy-huquqiy hujjatlar darajasida qonuniy ta'rif berilmagan. Olimlar ta'lim klasterini turlicha izohlaydilar. Masalan, V.N.Mixelkevich va P.G.Kravsovlar ta'lim klasteri deganda "sanoat korxonalari bilan tarmoq yo'nalishi va sherikchilik munosabatlari bo'yicha birlashgan, o'zaro bog'liq kasb-hunar ta'limi muassasalari majmui"ni tushunadi degan ta'rifni keltiradilar[40, 133]. Nanotexnologiyalar bo'yicha tuzib chiqilgan izohli lug'atida quyidagi ta'rif keltirilgan "ta'lim klasteri – fan-texnologiya-biznes innovatsion zanjirida hamda zanjir ichida gorizontal aloqalarga asoslangan ta'lim va mustaqil ta'lim olish tizimidir[51]. Klaster yaratishning strategik maqsadi ta'lim sohasida mintaqaning raqobatbardoshligini oshirishdan iborat.

Ko'plab ilmiy manbalarda ta'lim klasterini o'quv topshiriqlarini hal qilish jarayonida korxona tomonidan ilmiy markaz, innovatsion ta'lim va iqtisodiy jihatdan muvaffaqiyatli bo'lgan ilmiy-tadqiqot, o'quv, tashkiliy- pedagogik faoliyatni yuqori darajada amalga oshirish tizimi sifatida tushunadi degan ta'riflar keltiriladi[66].

Shunday qilib, bizning tadqiqotimiz doirasida ta'lim klasterini hududiy muayyan maqsadlar yo'lida birlashgan va bir-biri bilan o'zaro hamkorlikdagi o'zaro aloqador muassasalari majmuini tushunamiz. Ta'lim klasterining ishlash tamoyillari - iqtisodiyot va ijtimoiy soha bilan o'zaro aloqador yagona o'quv, ilmiy va innovatsion jarayondir; uzluksiz ta'lim jarayoni va turli darajadagi ta'lim modullarini muvofiqlashtirish; ta'lim klasterining barcha subyektlari o'rtasidagi o'quv-metodik, tashkiliy, axborot va ilmiy hamkorlik.

E.R.Skorniyakovaning tadqiqotlarida ta'lim klasterining quyidagi

afzalliklari alohida ajratib ko'rsatiladi:

1. Ta'lim muassasasi uchun tartibli tizim (klaster)ga birlashish muassasaning o'sish nuqtasi bo'lib, ular unga boshqa tashkilotlar qo'shila boshlaydilar.

2. Klasterni shakllantirishning asosi tashkilotlar, klaster a'zolarining yaqin hamkorligining "foydali" bozor mexanizmi hisoblanadi.

3. Klasterni shakllantirish jarayoni o'zaro hamkorlikdagi sheriklar o'rtasidagi ehtiyojlar, resurslar taqsimoti va texnologiyalar bo'yicha ma'lumotlar almashinuviga asoslanadi. Klasterning barcha a'zolari uchun erkin ma'lumot almashinuvi va turli kanallarga yangiliklarni tez tarqatish imkoniyati mavjud.

4. Ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan shug'ullanadigan tashkilotlar bilan klasterning aloqalariga asoslangan xilma-xillik va innovatsiyalar klaster rivojlanishini belgilovchi eng muhim omillaridan biri hisoblanadi.

5. Turli sohalardagi hamkorlar birlashmalarining ichki resurslardan samarali foydalanish qobiliyati muhim ahamiyatga ega.

6. Klaster ta'lim tizimiga sarmoya jalb etishda ijobiy rol o'ynaydi[62].

2030 yillarga mo'ljallangan ta'limni rivojlantirishning maqsadli dasturiy konsepsiyasida oliy ta'limni (klaster tipidagi) birlashmalarini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishda quyidagilar nazarda tutiladi:

- axborot-telekommunikatsiya texnologiyalari sohasida mutaxassislar tayyorlashni;

- kompyuter texnologiyalari bo'yicha mutaxassislar tayyorlashni tashkil etish;

- oliy ta'lim muassasalari mutaxassislarining tarmoq jamoalarini yaratish va qo'llab-quvvatlash[Ошибка! Источник ссылки не найден.].

Elektron ta'lim, masofaviy va bulutli texnologiyalar sharoitida turli ta'lim muassasalari va tadbirkorlar ishtirokida ta'lim jarayonini ta'lim klasterlarida tashkil etish ta'limni globallashtirishning turli modellari muvofiq amalga oshirilishi mumkin. Talabalar ishtirokida bir vaqtning

o'zida integratsiyalashgan mega-darslar tashkil etish "Mega-klass" ta'lim platformasida istiqbolli ko'rinadi[Ошибка! Источник ссылки не найден., 54].

Ta'limda taklif etilayotgan yangiliklarning mazmuni va mohiyatini tushunish uchun "klaster" tushunchasini tabiiy-ilmiydan gumanitar paradigmagacha bo'lgan evolyutsiyasini tahlil qilish zarur. Masalan, iqtisodiyotda "klaster" tushunchasi umumiy sa'y-harakatlar bilan bog'liq yoki bir-birini to'ldiruvchi tovarlarni ishlab chiqaradigan va sotadigan tashkilotlarning tarmoq va geografik hamkorligini bildiradi. Ta'limda "klaster" - bu bir xil o'quv maqsadlarini belgilash va jamoaviy ta'lim-tarbiya faoliyatini amalga oshiruvchi kasbiy tayyorgarlik darajasi va mutaxassisligi bo'yicha farqlanadigan turli xil ta'lim muassasalari birlashmasidir.

Ta'lim klasterini rivojlantirish biznes-dasturlarni amalga oshirish uchun biznes-dasturlarni, fundamental ishlanmalarni va axborot texnologiyalarini loyihalashning zamonaviy tizimlarini, ularni ishlab chiqish usullarini, shuningdek biznes-dasturlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan kadrlarni tayyorlash va kasbiy qayta tayyorlashni bog'lash zarurati bilan o'zaro bog'liqdir. Ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi ish beruvchi, ya'ni buyurtmachi ta'lim klasterini asosiy moliyaviy sarmoya sohasini aniqlash imkonini beruvchi ko'p tomonlama amaliy yo'naltirilgan bilim, ko'nikma va malakalar manbai sifatida belgilaydi. Ta'lim klasteri yagona tizim sifatida ishlaydi, uning asosiy vazifasi biznes uchun malakali kadrlar tayyorlashning ko'p bosqichli tizimini tashkil etishdir.

Ta'lim klasterlarida IoT texnologiyalar, bulutli texnologiyalar, elektron tashkiliy shakllar va ta'lim vositalari hisobiga ta'lim klasteri ishtirokchilarining shakllangan tuzilmalarini buzmaganda fan, ta'lim va hayotni integratsiyalash zarur[35].

Shunday qilib, amalga oshirilgan tahlillar ta'lim klasterining quyidagi didaktik imkoniyatlari ajratib ko'rsatish imkonini beradi, ular:

- manfaatdor ta'lim faoliyati subyektlari va tashkilotlarining ixtisoslashtirilgan tarmoqlararo integratsiyasi va hamkorligi;

- muayyan o'quv topshiriqlarini hal qilish uchun oldindan belgilangan ta'lim muassasalarini yirik markazlarda birlashtirish;

- turli tashkilotlarning sa'y-harakatlarini birlashtirish asosida rejalashtirilgan sifatli ta'limiy natijaga erishish;

- ta'limning turli darajalarida oldindan belgilangan ta'lim muassasalarining ta'lim resurslari va imkoniyatlarini birlashtirish.

Bir nechta ta'lim muassasalarini ta'lim klasteriga birlashtirish asosida zamonaviy tashkiliy shakllarni qo'llash sohasidagi hamkorlik, masalan, ta'limning turli darajalari, idoraviy mansubligi va turli yo'nalishdagi ta'lim muassasalarining tarmoq hamkorligi nazarda tutiladi. Shuningdek, tarmoq hamkorligiga asoslangan klasterlarni birlashtirish ta'lim resurslarini, didaktik imkoniyatlarni ko'paytirish, taniqli mutaxassislarni jalb qilish, innovatsion ta'sir doirasi va tadqiqot faoliyati salohiyatini oshirish imkonini beradi. Innovatsion nuqtai-nazardan, ta'lim klasterlari turli yo'nalishdagi ta'lim muassasalarining faoliyatini o'sish nuqtasi hisoblanadi[64, 65].

Cheklangan hududda joylashgan korxonalar va tashkilotlar majmui quyidagilar bilan tavsiflanadi: ilmiy- ishlab chiqarish zanjirida klaster ishtirokchilarini birlashtirish; klaster a'zolarini muvofiqlashtirish va faoliyatini boshqarish mexanizmi; har bir korxonaning yuqori darajada konsentratsiyasi sababli iqtisodiy samaradorligi va natijaviyligini oshirishda ifodalanuvchi sinergetik samara[44].

A.A.Migranyan innovatsion ta'lim klasterini mintaqalari iqtisodiyotida raqobatbardoshlikni oshirish uchun rag'batlantiruvchi innovatsiyalarni, yangi bilimlarni tez va samarali tarqatish maqsadida klasterli hamkorlik afzalliklardan foydalanish imkonini beruvchi turli tashkilotlarning tizimli birlashmasi sifatida belgilaydi[45].

YE.I.Sokolovning fikriga ko'ra, innovatsion ta'lim klasteri bir qator ilmiy va ta'lim muassasalarini ma'lum bir guruhga mexanik birlashtirish emas, balki ularning yaqin hamkorligi va o'zaro bog'liqligini ko'rsatadi. Bu klasterning alohida qismlarini va butun klasterni sifat jihatidan o'zgarishiga olib keladi, shu bilan birga yangi sifatli mahsulotni yaratish uchun uning ishlashi zarur[66].


"Klaster", "ta'lim klasteri", "innovatsion ta'lim klasteri"

tushunchalarining tahlili, axborot-ta'limiy klasterining ta'rifini shakllantirish imkonini berdi. Axborot-ta'limiy klaster ta'lim muammolarini hal qilish va zamonaviy ta'lim natijalariga erishish uchun ta'lim muassasasining innovatsion ta'lim faoliyati doirasida birlashgan o'zaro bog'liq obyektlar (ta'lim muassasalari, oliy ta'lim muassasalari, ijro etuvchi hokimiyat organlari, ilmiy maktablar, biznes tuzilmalari, jamoat tashkilotlari va boshqalar)ni o'z ichiga olgan ochiq tarmoq tuzilmasini anglatadi[43].

2.2.2-§. Ta'lim muassasasining axborot-ta'limiy klasteri tuzilmasi

Axborot-ta'limiy klasterning salohiyati ta'lim jarayonida muammoli o'quv topshiriqlarini bajarish, yoshlarni tarbiyalash va rivojlantirish, malakali mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash, ta'lim xizmatlarini ko'rsatish uchun fan va ta'lim o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning nostandart shakli sifatida belgilanadi. Axborot-ta'limiy klaster doirasidagi hamkorlik – bu muayyan ta'lim jarayoni doirasida klasterning alohida elementlari o'rtasidagi o'zaro manfaatli munosabatlarni o'rnatishdir. Axborot-ta'limiy klasteri joriy etishdan asosiy maqsad ma'lum bir hududning ta'lim sohasidagi raqobatbardoshligini oshirishdan iborat.

Hal qilinayotgan ta'lim topshiriqlarining mazmuni va murakkabligi ta'lim klasteri tuzilishi va uning tarkibiy elementlarini belgilaydi. Ta'lim vazifalarining murakkabligi gorizontaliga (fan, madaniyat, ta'lim muassasalari va boshqalar) va vertikaliga (ta'lim bosqichlari: kasbiy, umumiy, maktabgacha) o'zaro bog'liq elementlar tizimi (muassasalar va tashkilotlar) tizimini qurishni oldindan belgilab beradi[22]. Ta'lim muassasasining axborot-ta'limiy klasteri tuzilmasi 2.2.1-rasmda keltirilgan.



2.2.1-rasm. Axborot-ta'limiy klaster

Zamonaviy ta'lim tizimida jamiyatni umumiy kompyuterlashtirish va axborotlashtirish informatika o'qituvchisining axborot-texnologik tayyorgarligiga qo'shimcha talablarni qo'yadi. Tanqidiy fikrlovchi shaxsni tarbiyalash zaruriyatidan kelib chiqib, V.A.Krasilnikova pedagogika oliy ta'lim muassasasida informatika o'qituvchilarini tayyorlashga quyidagi talablarni qo'yadi:

- 1) umumiy metodologik tamoyillarni o'rganish va ularning ta'lim jarayonini o'zgartirish uchun samaradorligi va maqsadga muvofiqligini asoslash;
- 2) o'qituvchining axborot-kommunikativ kompetentligini rivojlantirish va shakllantirish;
- 3) ta'lim oluvchilarning mustaqil ishiga va ilmiy-ta'limiy va o'quv-bilish faoliyatini amalga oshirish asosida ta'limda axborot texnologiyalarini joriy etish;
- 4) o'qituvchi va ta'lim oluvchilar uchun loyihalash, tadqiqot kompetentligi va ta'lim yo'nalishlarini mustaqil ravishda qurish va tanlash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy ta'lim mazmuniga ehtiyojni rivojlantirish;
- 5) hammaga ma'lum bo'lgan tayyor kompyuter texnologiyalari vositalari asosida ta'lim berish va nazorat qilishning kompyuter vositalarini ishlab chiqish bo'yicha zarur bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish;
- 6) ta'limning yangi paradigmasi faoliyatining asosi sifatida yagona

ta'lim axborot muhiti va uning eng muhim komponentlari faoliyatining umumiy tamoyillarini o'zlashtirish, zaruratini tushunish;

7) ta'lim muassasasining avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarining ishlash tamoyillari va imkoniyatlarini tushunish, ta'limning borishi va natijalari to'g'risidagi statistik ma'lumotlarni, boshqa ma'lumotlarni shakllantirish va ulardan foydalanish[Ошибка! Источник ссылки не найден.].

T.S.Skorobogatova o'qituvchining pedagogik faoliyatda ta'limning zamonaviy usullari, innovatsion shakllari va vositalaridan foydalanishga tayyorligi uchun quyidagi bilim va ko'nikmalarni ajratib ko'rsatadi:

✓ motivatsion;

✓ axborot-mazmunli;

✓ tashkiliy - refleksiv[Ошибка! Источник ссылки не найден.].

M.M.Abdurazakov o'qituvchi faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini ta'kidlagan holda, informatika fani o'qituvchisining axborot-texnologik tayyorligining quyidagi komponentlarini ajratib ko'rsatadi:

✓ shahsiy;

✓ mazmunli - jarayoniy;

✓ motivatsion;

✓ maqsadni belgilovchi[Ошибка! Источник ссылки не найден., Ошибка! Источник ссылки не найден.].

Bo'lajak informatika o'qituvchisini rag'batlantirish va motivatsiyalash, bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish, ta'limni o'zgartirish va tahlil qilishni qobiliyati yangi metodlar, tashkiliy shakllar va ta'lim vositalari sifatida, o'qitish jarayonida ta'lim oluvchilarni rag'batlantirish, kasbga yo'naltirib o'qitish va motivatsiyalash sifatida o'qitishning qanchalik samarali joriy etilishi bilan aniq belgilanadi.

Ushbu tadqiqot doirasida biz amalda rejalashtirilgan ta'lim natijalariga va talabaning turli xil qiyin o'quv vaziyatlarida harakat qilish qobiliyatiga qaratilgan kompetentli yondashuvni amalga oshirish imkoniyatlarini ko'rib chiqamiz.

"Informatika o'qitish metodikasi" fanini o'rganish jarayonida

pedagogika oliy ta'lim muassasalarii talabasi Davlat ta'lim standartida "bakalavr" malakasi (darajasi) bilan "pedagogik ta'lim" ta'limi sohasida berilgan vakolatlarni namoyish qilishi va shakllantirishi kerak.

"Informatika o'qitish metodikasi" fanini o'qitishdan maqsad talabalarni pedagogik amaliyotga tayyorlashning asosi hisoblanadi.

Fanni o'zlashtirishdan maqsad:

- maktab informatika kursining mazmunini bo'lajak informatika o'qituvchilari tomonidan o'zlashtirilishi;

- pedagogika oliy ta'lim muassasalarii talabalarining informatika o'qitish metodikasi fanidan amaliy va nazariy tayyorgarligini rivojlantirish;

- maktabda ta'lim jarayonida innovatsion tashkiliy shakllardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish;

- zamonaviy tashkiliy shakllardan foydalanish sharoitida o'qituvchining axborot-texnologik tayyorgarlik komponentlari (tashkiliy, ekspert, gnostik, kommunikativ, loyihalash, konstruktiv) rivojlantirish;

- pedagogika oliy ta'lim muassasalarii talabalarining shahsiy sifatlarini shakllantirish;

- pedagogik ta'lim talablariga muvofiq maxsus, kasbiy va umumiy madaniy kompetensiyalarni rivojlantirish.

"Informatika o'qitish metodikasi" fanining vazifalari:

- "informatika o'qitish metodikasi" fanining maqsadi, vazifalari va mazmunini shakllantirish;

- muayyan ta'lim sohasidagi umumiy ta'lim dasturi tarkibida "informatika o'qitish metodikasi" fanining o'рни va rolini aniqlash;

- talabalarni "informatika o'qitish metodikasi" fanini sifatli o'qitishga tayyorlash;

- rivojlanayotgan zamonaviy axborot-ta'lim muhiti sharoitida informatika o'qitish metodikasini, shuningdek maktab informatika kursini yanada rivojlantirish istiqbollari to'g'risida g'oyani shakllantirish;

- talabalar tomonidan umumkasbiy va umumiy madaniy kompetensiyalarni o'zlashtirish ketma-ketligini aniqlash.

"Informatika o'qitish metodikasi" fanining maqsadlari, vazifalarini hisobga olgan holda u quyidagi bo'limlardan iborat bo'ldi:

1. Informatika o'qitish metodikasining predmeti, uning maqsadi, obyekti va vazifalari.

2. O'rta maktabda informatika fanini o'qitishning vazifalari. Informatika fan sifatida.

3. Umumta'lim standartlari va informatika fanidan asosiy hujjatlar.

4. Maktab informatika fanining boshlang'ich va asosiy kursining mazmuni. Maktabda informatika kursining asosiy vazifalari, kompyuter fanlari bo'yicha talabalarning majburiy minimal tayyorgarligini ta'minlash.

5. Maktabda informatika faniga ixtisoslashtirilgan o'qitishning metodik jihatlar.

6. Informatika kursining asosiy bo'limlarini o'rganish metodikasi.

7. Informatika o'qitish natijalarini diagnostika qilish, tekshirish va baholashni tashkil etish.

8. Maktabda informatika ta'limini tashkil yetishning asosiy shakli: xususiyatlari, vazifalari va dizayni.

9. Maktabda informatika darslarida o'qitishning turli usullari va tashkiliy shakllarini qo'llashning metodik jihatlar.

10. Informatika sinfida ishlashning xususiyatlari.

11. O'quvchilarning mustaqil va sinfdan tashqari ishlarini tashkil etish metodikasi.

12. Informatika kursi uchun kompyuter dasturlari.

13. Uzluksiz kasbiy o'z-o'zini tarbiyalash uchun mustaqil faoliyatni tashkil etish va rag'batlantirish.

Ta'lim va fandagi innovatsion jarayonlar o'qituvchi va talaba o'zaro munosabatlarining tubdan yangi shakllari va mexanizmlarini talab qiladi. "Informatika ta'limining innovatsion tashkiliy shakllari" kursining ishchi dasturida biz pedagogika oliy ta'lim muassasalarida informatika o'qituvchilarini tayyorlash dasturida ta'limning innovatsion tashkiliy shakllarini joriy etishning uslubiy jihatlarini batafsil ko'rib chiqishga harakat qildik.

"Informatika ta'limining innovatsion tashkiliy shakllari" fanini

o'zlashtirish talabalarida kasbiy kompetensiyalarni shakllantiradi. 7-8 semestrda "Informatika ta'limining innovatsion tashkiliy shakllari" tanlov fani o'qitiladi. Fanning asosiy bo'limlarini o'zlashtirish uchun talabalar o'qish davomida ishlab chiqilgan ko'nikmalar, bilimlar va tadbirlarni qo'llaydilar:

- psixologik-pedagogik tayyorlov fanlari: "Pedagogika", "Psixologiya", "Anatomiya, fiziologiyasi va gigiyenasi";

- predmetlarni o'qitish fanlari: "Informatika o'qitish metodikasi", "Informatika fanining nazariy asoslari", "Dasturlash" va boshqalar.

Tanlov fanining maqsadi:

- talabalarning o'quv jarayonida AKT vositalari asosida ta'limning yangi tashkiliy shakllarini qo'llashning uslubiy jihatlarini chuqurlashtirish;

- ta'lim jarayonida maqbul tashkiliy shakllarni ongli ravishda tanlashni amalga oshirish, zamonaviy ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish va pedagogik jarayonda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish.

Fanning maqsadlari:

- o'quv jarayonida tashkiliy shakllardan foydalanish sohasidagi ilmiy, uslubiy va o'quv ishlanmalarini joriy etish;

- talabalarning innovatsion ta'lim shakllaridan foydalanish asosida o'quv jarayonini loyihalash va qurishda zamonaviy yondashuvlarni qabul qilishlarini ta'minlash;

- ta'lim oluvchilarning mustaqil ish ko'nikmalarini egallashlarini ta'minlash, kasbiy tafakkuri va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish.

"Informatika ta'limining innovatsion tashkiliy shakllari" tanlov fani quyidagi bilimlarni egallaydilar:

- O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonining tuzilishi va mazmuni, Davlat ta'lim standartining tuzilishi va o'zlashtirish natijalariga qo'yiladigan talablarni;

- ta'limning zamonaviy tashkiliy shakllarini tasniflashni;

- informatika darslarida zamonaviy AKT vositalaridan foydalanish xususiyatlarini;

- masofaviy ta'limning xususiyatlarini;

- o'qituvchining kasbiy faoliyatida veb 2.0, veb 3.0

texnologiyalarining imkoniyatlarini;

- onlayn ma'ruza, Slayd-shou, video ma'ruza vazifalari va didaktik imkoniyatlarini.

Bo'lajak informatika o'qituvchilarining kognitiv, meyoriy-tartibga solish, refleksiv o'qitishga tayyorlik vazifalarini tahlil qilib, Y.S.Ponomareva o'qituvchining axborot-texnologik tayyorgarligining quyidagi tarkibiy qismlarini ajratib ko'rsatadi:

- informatikaning turli yo'nalishlarini o'qitish uchun zarur bo'lgan bilimlarni o'zlashtirish hamda ko'nikma va malakalarni rivojlantirishni o'z ichiga olgan kognitiv-operatsion;

- o'qituvchining axborot jamiyati qadriyatlariga nisbatan holatini rivojlantirish va ularni an'anaviy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish, ta'lim oluvchidarda axborot qiymatini tushunish va qabul qilishni shakllantirish istagi, shaxsning axborot hamkorligi sohasidagi huquqlariga to'g'ri munosabatda bo'lishni nazarda tutuvchi normativ-tartibga soluvchi;

- individual kasbiy va ta'lim imkoniyatlarini rivojlantirishni o'z ichiga olgan va informatikaning turli yo'nalishlarini o'qitishda ta'lim natijalarini belgilashni hamda ta'limning yangi metodlarini, informatikani o'qitishda ijodiy ish shakllarini tushunish va izlashga yo'naltirilgan refleksiv-ijodiy.

Y.S.Ponomareva bo'lajak informatika o'qituvchisining axborot-texnologik tayyorgarligining zaruriy komponenti sifatida mazmunli va faoliyatli tarkibga yetarlicha e'tibor qaratmaydi, lekin aynan ular o'qituvchi faoliyatining mazmuni va tuzilishini yoritib beradi.[56]

L.S.Vigotskiy, A.N.Leontyev, S.L.Rubinshteynlarning ta'limning shahsiy-faoliyatli nazariyasi haqidagi g'oyalarini tahlil qilgan holda, V.V.Kravets bo'lajak o'qituvchining kasbiy faoliyatga (ochiq ta'lim texnologiyalaridan foydalanishga) tayyorligi tuzilmasini kasbiy faoliyatning to'rtta o'zaro bog'liq komponentlari majmuasi sifatida ko'rib chiqadi:

- o'qituvchining ochiq ta'lim texnologiyasiga ongli munosabatini va uning zamonaviy ta'limning dolzarb muammolarini hal qilishdagi rolini ifodalovchi motivatsion komponent;

- ochiq ta'lim texnologiyalarining mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari, ularning turlari va xususiyatlari to'g'risida o'qituvchining bilimlari majmuini birlashtiruvchi tarkibiy komponent;

- kasbiy faoliyat tarkibida pedagogik texnologiyalardan foydalanish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalar majmuasiga asoslangan operatsion komponent;

- o'qituvchining ongi va faoliyati hodisalarini bilish va tahlil qilishni tavsiflovchi refleksiv komponent[Ошибка! Источник ссылки не найден.].

P.S. Glebova o'qituvchining axborot-texnologik kasbiy faoliyatga tayyorgarligining asosiy ta'riflarini tahlil qilgan tadqiqotchilar M.I.Dyachenko, L.A.Kandibovich, L.V.Kondrashova, K.K.Platonov va boshqalarning fikrlariga qo'shilgan holda, shaxsning ma'lum bir faoliyatga munosabati sifatida belgilaydi, bunda o'qituvchi o'ziga xos ruhiy holatda bo'lib, tashabbuskorlik ko'rsatishga samarali munosabat sababli yuqori ishchanlikni ta'minlovchi, shaxsning muayyan kasbiy faoliyatda to'plangan bilim, ko'nikma va belgilovchi o'qituvchining loyihaviy-konstruktorlik faoliyatiga tayyorligini ifodalaydi. P.S.Glebova o'qituvchining kasbiy tayyorgarligining quyidagi tarkibiy qismlarini ajratib ko'rsatadi:

- o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish uchun xohish va tayyorlik, motivatsion;

- loyihaviy-konstruktorlik faoliyati haqida maxsus va umumiy nazariy bilimlar, kognitiv;

- gnostik, loyihalash, konstruktorlik, tashkiliy, kommunikativ, operatsion;

- masalalani yechishga munosabat, o'ziga ishonch, hissiy;

- o'z faoliyati natijalari uchun muhimligi va shahsiy javobgarligini, shu jumladan uni doimiy ravishda takomillashtirish zarurligini anglash, shahsiy[29].

Bundan tashqari, P.S.Glebova o'qituvchi faoliyatining operatsion komponentini batafsilroq yoritib bergan. Gnostik komponentning shakllanish darajasi o'z bilimlarini kengaytirish, to'ldirish va qo'shimcha qilish qobiliyatida namoyon bo'ladi; o'z ta'lim faoliyatiga

baho berish, shuningdek shahsiy ta'lim faoliyati natijalarini baholash qobiliyati; o'quv material bilan mustaqil ishlash, shuningdek mustaqil ravishda tajribalar, tadqiqot va loyihalarni amalga oshirish qobiliyati.

Loyihalash komponentining shakllanganlik darajasi bo'lajak o'qituvchining turli ta'lim muammolarini loyihalash maqsadlarini belgilash qobiliyati; loyihalash qarorlarining sifat xususiyatlarini aniqlash qobiliyati; obyektning aniq modellarini optimallashtirish va tahlil qilish, shuningdek loyihaviy-konstruktorlik faoliyati natijalarini oldindan aniqlash qobiliyati; eng yaxshi yechimlarni izlash, shuningdek, qaror qabul qilishda tashabbus ko'rsatish qobiliyatida namoyon bo'ladi.

Konstruktiv komponentning shakllanganlik darajasi bo'lajak o'qituvchining grafik va abstrakt modellarni tanlash qobiliyati; eng yaxshi konstruksiyalash modelini belgilash, shuningdek, ushbu modellar va uning funksional maqsadi o'rtasidagi munosabatni aniqlash qobiliyati; axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining optimal majmuasini aniqlash, shuningdek, ta'lim jarayonini sifatli amalga oshirish va loyihalash uchun ulardan foydalanish yo'llarini tanlash qobiliyatida namoyon bo'ladi.

Tashkiliy komponentning shakllanganlik darajasi bo'lajak o'qituvchining o'z kasbiy faoliyatini tashkil etish qobiliyatida namoyon bo'ladi.

Kommunikativ komponentning shakllanganlik darajasi bo'lajak o'qituvchining ta'lim faoliyatining turli ishtirokchilari o'rtasidagi shaxslararo munosabatlarni rivojlantirish uchun turli mexanizmlardan foydalanish qobiliyatida namoyon bo'ladi[29].

Ko'pgina tadqiqotlarda (B.G.Ananyev, M.I.Dyachenko, V.A.Slastenin va boshqalar) ko'rib chiqilgan bo'lajak informatika o'qituvchisining axborot-texnologik tayyorgarligiga oid nazariy va amaliy qoidalarining tahlili informatika o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligi shaxsning integral holati bilan ifodalanishi, u o'z ichiga to'rtta asosiy komponentni olishini ko'rsatadi, ularga: refleksiv, operatsional, mazmunli va motivatsion. Shunga mos ravishda ushbu tadqiqot doirasida bo'lajak informatika o'qituvchisining axborot-texnologik tayyorgarligi komponentlarini axborot texnologiyalari

vositalariga asoslangan zamonaviy metodlar, tashkiliy shakllar va ta'lim vositalarini qo'llash doirasida o'rganishimiz kerak.

Motivatsion komponent. Ta'lim tizimi rivojlanishining hozirgi bosqichida bo'lajak o'qituvchida ta'limning yangi innovatsion shakllarini o'rganishga motivatsiyasini shakllantirish zarur. Zamonaviy o'qituvchiga uning kasbiy o'sishi, uning daromadi ko'p jihatdan amaldagi meyoriy hujjatlardan belgilangan ta'lim natijalariga erishishgacha bo'lgan darajalarga bog'liq ekanligini tushuntirish zarur. Bo'lajak o'qituvchiga shuni tushuntirish kerakki, ta'lim jarayonida zamonaviy tashkiliy shakllardan foydalanilgandagina belgilangan ta'lim natijalariga erishish mumkin. Shunga ko'ra, zamonaviy o'qituvchini zamonaviy innovatsion shakllarni o'zlashtirishga motivatsiya berish kerak, aks holda u belgilangan ta'lim natijalariga erisha olmaydi.

Agar operatsion komponentni yuqorida ko'rsatilgan bo'lajak informatika o'qituvchisining kasbiy faoliyati komponentlariga ko'ra batafsilroq tahlil qilsak, gnostik komponentning shakllanganligi ta'lim jarayonida yangi metodlar, ta'limning innovatsion shakllari va ta'lim vositalarining psixologik-pedagogik xususiyatlaridan maqsadli foydalanish qobiliyatida namoyon bo'ladi.

Konstruktiv komponentning shakllanganligi ta'lim muassasasida o'quv jarayonini konstruksiyalash uchun ta'limning yangi metodlari, innovatsion shakllari va vositalarini maqsadli qo'llash qobiliyatida namoyon bo'ladi.

Loyihalash komponentining shakllanganligi ta'lim muassasasida o'quv jarayonini loyihalash uchun ta'limning yangi metodlari, innovatsion shakllari (telekommunikatsiya loyihasi, modulli o'qitish, tarmoqli aloqa, keys texnologiyasi) va vositalarini maqsadli qo'llash qobiliyatida namoyon bo'ladi.

Kommunikativ komponentning shakllanganligi ta'lim jarayonining turli subyektlari (o'quvchilar, ota-onalar, o'qituvchilar) o'zaro hamkorligi uchun ta'limning yangi metodlari, innovatsion shakllari (ta'lim portali, chat, tarmoqli aloqa, blog, forum va boshqalar)ni maqsadli qo'llash qobiliyatida namoyon bo'ladi.

Tashkiliy komponentning shakllanganligi ta'lim muassasasida

o'quv jarayonini tashkil etish uchun yangi metodlar, innovatsion shakllar (telekommunikatsiya loyihasi, modulli o'qitish, tarmoqli aloqa, keys texnologiyasi) va axborot texnologiyalariga asoslangan ta'lim vositalarini maqsadli qo'llash qobiliyatida namoyon bo'ladi.

Ekspert komponentining shakllanganligi ta'lim jarayoni sifatini ekspert baholash uchun o'quv jarayonida yangi metodlar, innovatsion shakllar va zamonaviy ta'lim vositalaridan foydalanish sohasidagi bilimlarni maqsadli ravishda egallash qobiliyatida namoyon bo'ladi.

Tarkibiy komponent. Bo'lajak informatika fani o'qituvchisi ta'lim jarayonida an'anaviy va innovatsion tashkiliy shakllarni qo'llash bo'yicha bilimlarni shakllantirishi, ular qanday tuzilganligi, qanday tasniflanganligi, qanday qurilganligi haqida tasavvurga ega bo'lishi kerak. Aks holda o'qituvchi ta'lim jarayonida bu shakllardan sifat jihatidan foydalana olmaydi.

Operatsion komponent. Bo'lajak informatika fani o'qituvchisi ta'lim jarayonida innovatsion shakllarni qo'llash bo'yicha bilimga ega bo'lishi kerak. Zamonaviy informatika o'qituvchisi ta'limning zamonaviy shakllaridan foydalangan holda umumta'lim maktabida yangi ta'lim jarayonini rejalashtirish haqida tasavvurga ega bo'lishi kerak. Ta'lim jarayonini rejalashtirishda an'anaviy shakllardan foydalanish yoki innovatsion shakllardan foydalanish o'rtasida katta farq bor. Shunga ko'ra, zamonaviy o'qituvchi ta'limning zamonaviy shakllarini qo'llash sharoitida ta'lim jarayonini rejalashtira olishi kerak, degan xulosaga kelish mumkin.

Refleksiv komponent. Bo'lajak informatika fani o'qituvchisida ma'lum bir darsni yoki butun ta'lim jarayonini qurish sifatini baholash ko'nikmalari shakllangan bo'lishi kerak. Ushbu komponentni egallagan o'qituvchi doimo ta'lim jarayoni sifatini oshirish yo'llarini izlashi kerak. Bunday o'qituvchi axborot texnologiyalari asosida ta'limning zamonaviy metodlari, tashkiliy shakllari va yangi ta'lim vositalarini qo'llash sohasida bilim, ko'nikma va malakalarni individual ravishda oshirib borishi kerak. Bundan tashqari, refleksiv komponentga ega o'qituvchi uzluksiz ravishda ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga imkon beradigan zamonaviy metodlar, tashkiliy shakllar va

axborot texnologiyalariga asosidagi yangi ta'lim vositalarini izlashda davom etishi kerak.

Pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarining hozirgi vaqtda ishlashga axborot-texnologik tayyorgarligini shakllantirish uchun shart-sharoitlarni ishlab chiqish eng muhim mezonlardan biridir. Axborot-texnologik tayyorgarlik sohasida ta'lim jarayoniga yuqorida tavsiflangan operatsion, refleksiv, mazmunli va motivatsion komponentlarni qo'llash mumkin. Ushbu komponentlarning shakllanganlik darajasi bo'yicha va bo'lajak informatika o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligining shakllanganlik darajasi haqida gapirib o'tamiz.

"Daraja" tushunchasi tayyorgarlikni shakllantirish jarayonining sifatli diskretligi, tuzilishini aks ettiradi va ushbu sifatning izchilligi va yaxlitligi, uning shakllanish darajasining ko'rsatkichi hisoblanadi.

V.A.Yadovning fikriga ko'ra, "darajani aniqlash mezonlariga quyidagilar kiradi:

- a) murakkablikning turli sinflari tizimiga mansubligi;
- b) har bir darajadagi qonunlar va qonuniyatlarning o'ziga xosligi;
- v) quyi darajadagi qonunlar va tizimlarning yuqoridagilarga bo'ysunishi;
- g) ta'limning har bir keyingi darajasi kelajakdagi asosiy tarkibdan o'tishi;
- d) ta'limning har bir keyingi darajasi kelajakdagi ta'limga o'z elementlari tizimi sifatida kiritiladi"[16].

2.2.3-§. Bo'lajak informatika fani o'qituvchisining axborot-texnologik tayyorgarligini zamonaviy tashkiliy shakllardan foydalanishga tayyorlash bo'yicha metodik dasturni ishlab chiqish

Zamonaviy informatika o'qituvchisining ta'lim jarayonida innovatsion shakllardan foydalanishga tayyorligining uchta darajasi: past, o'rta va yuqori mavjud.

Informatika o'qituvchisining ta'lim jarayonida innovatsion shakllardan foydalanishga yuqori darajada tayyorligi quyidagi ko'nikmalarga bog'liq:

- zamonaviy metodlar, innovatsion shakllar va yangi ta'lim vositalaridan foydalanishni hisobga olgan holda ta'lim muassasasining

zamonaviy axborot-ta'lim muhitini shakllantirish;

- ta'lim muassasasida o'quv jarayonini konstruksiyalash, tashkil etish va loyihalashda an'anaviy va innovatsion shakllar (telekommunikatsiya loyihasi, modulli ta'lim, tarmoqli aloqa, keys texnologiyasi va boshqalar) dan foydalanish;

- ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish uchun, masalan, tarmoq texnologiyalaridan foydalanish yordamida zamonaviy metodlar, innovatsion shakllar va zamonaviy ta'lim vositalarini qo'llash;

- ta'lim jarayonida yangi metodlar, innovatsion shakllar va zamonaviy ta'lim vositalaridan maqsadli foydalanish.

Bo'lajak informatika o'qituvchisining ta'lim jarayonida innovatsion shakllardan foydalanishga tayyorligining o'rtacha darajasi quyidagi malakalar bilan belgilanadi:

- ta'lim muassasasining axborot-ta'lim muhitini saqlash, masalan, maktabning axborot-ta'lim muhitidan foydalanishda boshqa o'qituvchilarga yordam berish;

- ta'lim jarayoni sifatini oshirish va rejalashtirilgan ta'lim natijalariga erishish maqsadida AKT vositalari asosida yangilanayotgan axborot-ta'lim muhiti komponentlaridan foydalanish;

- ta'lim muassasasining yangilanayotgan axborot-ta'lim muhitidan foydalangan holda ta'lim jarayonini konstruksiyalash, tashkil etish va loyihalash;

- ta'lim jarayonida o'qitishning an'anaviy metodlari, shakllari va vositalaridan maqsadli foydalanish.

Zamonaviy informatika o'qituvchisining ta'lim jarayonida innovatsion shakllardan foydalanishga tayyorligining past darajasi quyidagi bilimlarga bog'liq:

- ta'lim jarayonida yangi AKT vositalarini qo'llash asosida tayyor dars konspektlaridan foydalanish;

- ta'lim jarayonida ta'lim muassasasining axborot-ta'lim muhiti vositalaridan foydalanish;

- ta'lim muassasasining o'quv jarayonida o'qitishning an'anaviy metod, shakllari va vositalarini qo'llash.

Umuman olganda bo'lajak informatika fani o'qituvchisining

axborot-texnologik tayyorgarligi ularni zamonaviy tashkiliy shakllardan foydalanishga tayyorlash bo'yicha metodik dasturni ishlab chiqish bilan chambarchas bog'liq.

2.3-§. Zamonaviy ta'lim shakllarini klasterlash asosida bo'lajak informatika fani o'qituvchilarini axborot-texnologik tayyorgarligini rivojlantirish metodikasi

2.3.1-§. AKTga asoslangan o'quv faoliyatida o'qitishning zamonaviy tashkiliy shakllaridan foydalanish

